



2.3.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA
MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI**

**“JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHISINING KASBIY
KOMPETENSIYALARI”
MODULI BO‘YICHA**

O‘QUV – USLUBIY MAJMUA

**Malaka oshirish
yo‘nalishi:**

Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi

**Tinglovchilar
kontingenti:**

**Umumta’lim muassasalari jismoniy
tarbiya fani o‘qituvchilari**

Toshkent – 2024

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi bilan 2023-yil “29” dekabrda kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan 2023-yil “29” dekabrda tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va o‘quv dasturga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

A. Akmalov	Institutning “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida prof.v.b., ped.f.n.
S.Yaxyaeva	Samarqand filiali “Sport psixologiyasi, ijtimoiy-tabiiy fanlar kafedrasida” o‘qituvchisi falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori. (PhD)
N.Yuldasheva	Institutning Farg‘ona filiali “Sport psixologiyasi, ijtimoiy-tabiiy fanlar kafedrasida” kafedrasida mudiri

Taqrizchilar:

G.Yeldasheva	Institutning “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida dotsenti p.f.n.,
X.Xudayberdiyeva	Samarqand filialining “Sport psixologiyasi, ijtimoiy-tabiiy fanlar” kafedrasida (PhD) dotsent

O‘quv uslubiy majmua Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasining 2024-yil - -----da o‘tkazilgan –sonli yig‘ilish bayoni bilan muhokamadan o‘tkazilgan va Ilmiy kengashga tavsiya etilgan

MUNDARIJA

I	ISHCHI O‘QUV DASTUR.....	4
II	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....	9
III	NAZARIY MA’LUMOTLAR.....	11
IV	KEYSLAR BANKI.....	112
V	GLOSSARIY.....	114
VI	ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	116



ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ushbu o'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368 — sonli Farmoni, 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sonli Qarori, 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-sonli Qarori, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2019-yil 23-avgustdagi "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va jamiyatda o'qituvchi mavqeyini oshirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor majlisi bayoni" da belgilangan ustuvor vazifalar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi "Sport ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora — tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5279-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi "Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4954-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" PF-60-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 355-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining qo'shma qarori 2023 yil 17-avgustgi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari jismoniy tarbiya yo'riqchilari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarni onlayin va oflayin shakllarda tashkil etish to'g'risidagi qarori mazmunidan kelib chiqqan holda tayyorlangan.

Bugungi dunyoda pedagogning kasbiy kompetentligi va uning ilmiy-metodik ta'minotini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirishga oid qator, jumladan, pedagogda professional kompetentlikni shakllantirish asosida mutaxassislarning individual imkoniyatlarini takomillashtirish; pedagoglarda kasbiy, kommunikativ, intellektual kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha psixologik ilmiy izlanishlar; kasbiy kamolotni tatbiq etishda tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim; kompetentlikni rivojlantirish asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish

yoʻnalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda natijalari oʻrganilgan holda tuzilgan boʻlib, u zamonaviy talablar asosida jismoniy tarbiya fan oʻqituvchilari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini oshirishni nazarda tutadi.

Dastur mazmuni Oʻzbekiston Respublikasining taʼlim-tarbiya sohasidagi davlat siyosati, taʼlim-tarbiya jarayonini tashkil etishning huquqiy-meʼyoriy hujjatlari, pedagogning kasbiy kompetentligi va mahorati, taʼlim-tarbiya jarayoniga psixologik yondashuv, oʻquv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qoʻllash, amaliy xorijiy til, jismoniy tarbiyani oʻqitishda innovatsion yondashuvlar, jismoniy tarbiyani oʻqitish metodikasi oʻquv jarayonini tashkil etishning zamonaviy usullarini oʻz ichiga oladi va ular boʻyicha tegishli yangi bilim, koʻnikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular xalq taʼlimi tizimi va Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qoʻyiladigan malaka talablari va oʻquv rejasi asosida shakllantirilgan boʻlib, jismoniy tarbiya oʻqituvchilarini zamonaviy taʼlim va innovatsiya texnologiyalari, ilgʻor xorijiy tajribalardan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini oʻquv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga ularning kasb mahorati va oʻquv-uslubiy faoliyatini sifatli tashkil etish kompetensiyalarini tizimli ravishda takomillashtirishni nazarda tutadi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: Jismoniy tarbiya fani oʻqituvchisining pedagogik faoliyat bilan shugʻullanish huquq va majburiyatlari, vazifalari, oʻquv mashgʻulotiga qoʻyiladigan kompetensiyaviy didaktik talablar, taʼlim-tarbiya jarayonidagi faoliyati va mashgʻulotga tayyorgarligi, jismoniy tarbiya fani oʻqituvchilarining taʼlim va tarbiya jarayonlarini tashkiliy metodologik asoslari haqidagi bilimlarini takomillashtirish, jamiyat rivoji hamda taʼlim-tarbiya jarayoniga doir ayrim muammolar va kamchiliklarni aniqlash, tahlil etish, baholash koʻnikma va malakalarini, yangicha ong va dunyoqarashni tarkib toptirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

jismoniy tarbiya fani oʻqituvchisining professional kompetentligi va mahorati yoʻnalishida kasbiy bilim, koʻnikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;

zamonaviy talablarga mos holda taʼlimning sifatini taʼminlash uchun zarur boʻlgan kasbiy kompetentlik va mahorati darajasini oshirish;

yosh sportchi shaxsining shakllanishiga taʼsir etuvchi omillar: irsiyat, muhit, tarbiyaning bola shaxsida taʼsiri;

sogʻlomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qoʻllay olish kompetensiyasi. Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda toʻgʻri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish;

tinglovchilarda sport mashgʻulotlariga innovatsion texnologiyalarni qoʻllash orqali bilim, koʻnikma va malakalarini shakllantirish.

Modul boʻyicha tinglovchilarning bilimi, koʻnikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qoʻyiladigan talablar

Jismoniy tarbiya fani oʻqituvchisining kasbiy kompetensiyalari kursini oʻzlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

“Jismoniy tarbiya fani oʻqituvchisining kasbiy kompetensiyalari” modulini oʻzlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

kasbiy kompetentligi va mahoratining asosiy funksiyalari;

taʼlim-tarbiya texnologiyalarni oʻz faoliyatida qoʻllay olish;

kasbiy kompetensiyasi va mahorati doirasida yuzaga keladigan muammolar va ularni hal etish usullari;

oʻquv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish asosida pedagogik texnologiyani tanlay olishi;

“Jismoniy tarbiya fani oʻqituvchisining kasbiy kompetensiyalari” modulini oʻzlashtirish jarayonida **bilimlarga ega boʻlishi;**

Tinglovchi:

oʻz kasbiy faoliyat sohalarida normativ - huquqiy hujjatlar boʻyicha xizmat koʻrsatish;

jismoniy tarbiya va sport turlari haqidagi yangi bilimlarni shakllantirish;

bolalarni texnik va taktik jihatdan tayyorlashda jismoniy tarbiya fani oʻqituvchisi faktorlar ega boʻlishi hamda yondashuv jihatlariga asoslanishi;

“Jismoniy tarbiya fani oʻqituvchisining kasbiy kompetensiyalari” modulini amaliyotda qoʻllash **koʻnikmalarini egallashi;**

Tinglovchi:

kasbiy mahorat sirlarini o‘zlashtirish hamda bolalarning jismoniy sifatlarini aniqlash, tahlil etish, baholash va umumlashtirish;

sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo‘llay olish kompetensiyalarni rivojlantirish.

zamonaviy jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi konsepsiyalarga doir keyslar tuzish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

“Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari” moduli bo‘yicha **malakalarini egallashi;**

Tinglovchi:

zamonaviy jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi turli usullardan foydalanish va tashkil etish;

sportda ta‘lim va tarbiya jarayonlarini o‘zviyligini ta‘minlash;

ta‘limiy-tarbiyaviy maslahatlar berish;

jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi va mahoratini, turli texnologiyalarni ta‘lim amaliyotiga samarali tatbiq etish malakalarini egallashi lozim

motivlar mashg‘ulot faoliyati samaradorligini oshiruvchi vosita ekanligi haqida malakalarga ega bo‘lish kabi kompetensiyalarni egallashi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari” kursi ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlari shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta‘limning zamonaviy metodlari, savol-javob, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

nazariy darslarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

amaliy darslarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interaktiv ta‘lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari” moduli

bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi umumiy tayyorgarlik, umumkasbiy tayyorgarlik va mutaxassislik bo'yicha tayyorgarlik blokidagi o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda tinglovchilarning kasbiy-jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning sport ta'limidagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari o'zlashtirish, joriy etish va amaliyotda qo'llashga doir umumiy va kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar va jismoniy tarbiya fani o'qituvchisilik mahoratini oshiradilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

T/r	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soatlari					
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
			Jumladan				
			Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot	
1.	Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining huquq majburiyatlari va vazifalari.	2	2	2			
2.	Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentliginig nazariy asoslari.	2	2	2			
3.	Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi kompetentligining ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati.	2	2		2		
4.	Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisiga qo'yiladigan kompetensiyaviy talablar.	2	2		2		
	Jami:	8	8	4	4		

NAZARIY TA'LIM MAZMUNI

1-mavzu: Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining huquq majburiyatlari va vazifalari.

Reja

1.1. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi, vazifalari va majburiyatlari.

1.2. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining ta'lim jarayoni tashkil etish va boshqarish mahorati.

Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi, jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining vazifalari. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining majburiyatlari. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining ta'lim jarayoni tashkil etish va boshqarish mahorati.

2-mavzu: Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligining nazariy asoslari.

Reja

2.1. Kompetentlik va kompetensiya tushunchasi va mohiyati.

2.2. Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari.

“Kompetentlik” tushunchasining mohiyati. Kasbiy kompetentlik. Kasbiy kompetentlikni rivojlantiruvchi ehtiyojlar. Pedagogning o'z ustida ishlashi. Pedagogning o'z ustida ishlash bosqichlari. Pedagogning o'z ustida ishlash modeli. O'zini o'zi tahlil qilish. O'zini o'zi baholash. O'zini o'zi samarali baholash omillari. Pedagogning o'z-o'zini rivojlantirishi.

3-mavzu: Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi kompetentligining ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati.

Reja

3.1. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining shaxsiy, kasbiy, umummadaniy, maxsus va tayanch kompetensiyalari.

3.2. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi faoliyatiga kreativ yondoshuvi.

Kasbiy kompetentlik sifatleri (ijtimoiy kompetentlik, maxsus (psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ) kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, texnologik kompetentlik, ekstremal kompetentlik. “Kreativlik” va “pedagogik kreativlik” tushunchalarining mohiyati. Pedagogik kreativlik darajalari va pedagogning kreativligini rivojlantirish yo'llari. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi faoliyatiga kreativ yondoshuvi.

4-mavzu: Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisiga qo'yiladigan kompetensiyaviy talablar.

Reja

4.1. Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya o'quv fanini o'qitishning maqsad va vazifalari.

4.2. Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi.

4.3. Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi.

Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya o'quv fanini o'qitishning maqsad va vazifalari. Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi. Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modulni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimediyaga mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.



MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

MODULNI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

“SWOT-tahlil” metodi.

“SWOT-tahlil” metodi boshqa metodlarda bo‘lgani kabi o‘zining maqsad vazifalariga egadir. Mazkur metodning maqsadi, mavjud nazariy bilim va to‘plangan tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash asosida muammoni hal etish

yo‘llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga mo‘ljallangan.

S-(Strength). Kuchli tomonlari.	W-(wyeakness). Zaif, kuchsiz tomonlari.
O-(opportunity). Imkoniyatlar.	T-(threat). To‘siqlar.

“Yalpi fikriy hujum” metodi

“Yalpi fikriy hujum” metodini J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, uni bir necha o‘n (20, 40 va 60) nafar ta‘lim oluvchilardan iborat guruhlarda qo‘llash mumkin. Ushbu metod ta‘lim oluvchilar tomonidan yangi g‘oyalarning o‘rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har biri 5 yoki 6 nafar ta‘lim oluvchilarni o‘z ichiga olgan guruhlariga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo‘lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi. Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqda guruh a‘zolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o‘qituvchi va boshqa guruhlar a‘zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg‘ulot yakunida o‘qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o‘ziga xos deb topilgan javoblarni e‘lon qiladi. Mashg‘ulot jarayonida guruh a‘zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko‘ra baholab boriladi.

Sport o‘yinlari

Futbol		Voleybol		Basketbol	
<i>afzalligi</i>	<i>kamchiligi</i>	<i>afzalligi</i>	<i>kamchiligi</i>	<i>afzalligi</i>	<i>kamchiligi</i>
•	•	•	•	•	•
•	•	•	•	•	•
•	•	•	•	•	•

Xulosa:

“FSMU” METODI

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni


o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;

har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:

ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhviy tartibda taqdimot qilinadi. qilinadi.



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

“ASSESSMENT” METODI

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilar bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali tinglovchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida tinglovchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, amaliy

mashgʻulotlarda esa mavzu yoki maʼlumotlarni oʻzlashtirish darajasini baholash, shuningdek, oʻz-oʻzini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. SHuningdek, oʻqituvchining ijodiy yondashuvi hamda oʻquv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qoʻshimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

“KEYS-STADI” METODI

“Keys-stadi” — inglizcha soʻz boʻlib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshirigʻni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarbligini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali oʻquv topshirigʻining yechimini izlash, hal etish yoʻllarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yoʻllarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va toʻsiqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qoʻllash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Jismoniy tarbiya darslarida ham interfaol metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi.



NAZARIY MATERIALLAR

1-MAVZU:	JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHISINING HUQUQ MAJBURIYATLARI VA VAZIFALARI.
-----------------	---

Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi

<i>O'quv soati: 2 soat</i>	<i>Tinglovchilar soni: 25 ta</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli:</i>	Kirish–ko'rgazmali ma'ruza. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi asosida.
<i>Ma'ruza rejasi:</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining pedagogik faoliyat bilan shug'llanish huquqi, vazifalari va majburiyatlari. 2. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining ta'lim jarayoni tashkil etish va boshqarish mahorati.
<p><i>O'quv mashg'ulotining maqsadi</i> Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining pedagogik faoliyat bilan shug'llanish huquqi, jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining vazifalari. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining majburiyatlari. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining ta'lim jarayoni tashkil etish va boshqarish mahorati.</p>	
<p><i>Pedagogik vazifalar: pedagog</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • modulning maqsad vazifalari bilan tanishtirish; • “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, pedagog faoliyati, vazifalari va huquq va majburiyatlari haqida ma'lumotlar berish; • pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish mahorati haqida tanishtirish; • asosiy pedagogik va didaktik kategoriyalarni pedagogik mahoratning tarkibiy qismlariga to'xtalib o'tish; • pedagogika fani oldida turgan vazifalar va ta'limni isloh qilishning asosiy yo'nalishlarini ochib beradi; 	<p><i>O'quv faoliyat natijalari: tinglovchilar</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • modulning maqsad vazifalari bilan tanishib oladilar; • “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, pedagog faoliyati, vazifalari va huquq va majburiyatlari haqida ma'lumotlar oladilar; • pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish mahorati haqida bilib oladilar; • asosiy pedagogik va didaktik kategoriyalarni pedagogik mahoratning tarkibiy qismlariga bilib oladilar; • pedagogika fani oldida turgan vazifalar va ta'limni isloh qilishning asosiy yo'nalishlarini o'rganadilari;

<i>Ta'lim metodlari:</i>	Ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, aqliy hujum metodi.
<i>Ta'lim vositalari:</i>	Ma'ruzalar matni, marker, doska, skoch slaydlar, tarqatma materiallar, qog'ozlar.
<i>Ta'lim shakli:</i>	Jamoaviy va kichik guruhlarda ishlash
O'qitish shart-sharoitlari:	Texnik vositalardan foydalanishga va kichik guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki javob, taqdimot, topshiriq.

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi (1 – mashg'ulot)

<i>Ish bosqichlari va mazmuni</i>	<i>faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchining</i>	<i>tinglovchilarning</i>
I. Kirish bosqichi (15 daqiqa)	<p>1.1. O'quv modulning nomi bilan tanishtiriladi, predmet haqida dastlabki ma'lumotlar beriladi. Mavzu nomi bilan tanishtiradi. O'tilayotgan mavzu kirish ma'ruza tarzida tashkil etilishi e'lon qiladi.</p> <p>1.2. Malaka oshirish davomida modul bo'yicha o'tiladigan mavzular, ularga ajratilgan soatlar (1-slayd) va tinglovchilarni shu o'quv kursini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun kerakli ko'rsatmalar va adabiyotlar bilan tanishtiradi. (2-slayd).</p> <p>1.3. Bugungi mavzu nomi, rejasi bilan tanishtiriladi va unga izoh beriladi.</p>	<p>Eshitadilar.</p> <p>Yozib oladilar.</p> <p>Eshitadilar, yozib oladilar.</p> <p>Eshitadilar, yozib oladilar</p>
II. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	<p>2.1. Modulning, maqsadi va vazifalari haqida umumiy tushuncha beriladi. Tinglovchilari faollashtirish maqsadida "Aqliy hujum" metodini qo'llab, umumiy savol beriladi: "Bu modul nimani o'rgatadi?" "Aqliy hujum" metodidan foydalanishda rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar bilan tanishtiriladi. (1-ilova)</p>	<p>Eshitadilar, tahlil qiladilar.</p> <p>Matnni ko'rib chiqadilar va berilgan belgilarni qo'yib chiqadilar.</p>

	<p>Birinchi rejani “insert” texnikasi orqali tahlil qilish topshiriladi va ma’ruza matni tarqatiladi, “insert” texnikasidan foydalanish tushuntiriladi . (2- ilova)</p> <p>Tinglovchilarning bajargan ishlari tahlil qilinadi.</p> <p>2.2. Pedagogning ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish mahorati va uning tarkibiy qisimlari haqidagi ma’lumotlar bilan tinglovchilarni tanishtiriladi. Asosiy pedagogik va didaktik kategoriyalar haqidagi ma’lumotlarni pedagog marker orqali slaydga yozib, proyektor orqali ko’rsatadi. Tinglovchilar bilan hamkorlikda asosiy pedagogik va didaktik kategoriyalarga izoh beriladi. (4-slayd). Ikkinchi rejani “tushunchalar tahlili” metodidan foydalanib mustahkamlanadi.(5- slayd)</p> <p>Tinglovchilarning bajargan taqdimotlari tahlil qilinadi va xulosalanadi.(6-slayd)</p>	<p>Yozib oladilar.</p> <p>Eshitadilar, yozib oladilar.ekspert varag‘ini oladi va guruhda uni tahlil qilib, guruh a’zolaridan biri taqdimot qiladi</p> <p>Tinglashadi, savollar berishadi, yozib olishadilar</p>
<p>III. Yakunlovchi bosqich (10 daqiqa)</p>	<p>3.1.Mavzuni ikkita rejasi asosida xulosa qilib, eng muhim ma’lumotlarga tinglovchilar diqqatini jalb qiladi.</p> <p>3.2. Muhokamada faol qatnashgan tinglovchilarni rag‘batlantiradi.</p> <p>3.3.Savollar berish orqali bilimlar mustahkamlanadi. (- ilova).</p> <p>3.4.Tinglovchilarning mustaqil pedagogik tajribani oshirish uchun vazifalar beriladi: (- ilova)</p>	<p>Tinglashadi, savollar berishadi.</p> <p>Savol–javobda qatnashadilar.</p> <p>Yozib oladilar.</p>

1-mavzu: Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining huquq majburiyatlari va vazifalari.

Reja

1.1. Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining pedagogik faoliyat bilan shug‘llanish huquqi, vazifalari va majburiyatlari.

1.2. Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining ta‘lim jarayoni tashkil etish va boshqarish mahorati.

Jamiyat, fan va madaniyatning rivojlanishi ta‘lim va tarbiya ishlarining qay yo‘sinda olib borilishiga bog‘liqdir. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilimli va barkamol shaxs taqdiri bilan bog‘liqligini unutmagan holda, ushbu muammoni mahoratli, bilimli pedagoglar faoliyatiga tayanib yechish mumkinligini unutmasligimiz lozim.

1.1. Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining pedagogik faoliyat bilan shug‘llanish huquqi, vazifalari va majburiyatlari.

“Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta‘lim sohasida amalga oshiriladigan ishlarning maqsadi, vazifalari va yo‘nalishlarini belgilab berdi. “Ta‘lim to‘g‘risidagi” Qonunning 5-bobi, “Ta‘lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi” va 44-moddasida “Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi” tegishli ma‘lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan va ma‘naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega. Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega.

Agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, pedagogik oliy ma‘lumotga ega bo‘lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o‘tganidan keyin ta‘lim tashkilotlarida (bundan oliy ta‘lim tashkilotlari mustasno) pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi beriladi.

Ishlab chiqarish ta‘limi ustalari qayta tayyorlash kurslaridan o‘tmasdan professional ta‘lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishga haqli.

Zarurat bo‘lganda professional ta‘lim tashkilotlari ishlab chiqarish ta‘limi ustalarini, shuningdek tegishli bilim hamda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, oliy ma‘lumoti bo‘lmagan boshqa mutaxassislarni amaliy va qo‘shimcha mashg‘ulotlarni olib borish uchun jalb etishi mumkin.

“Ta‘lim to‘g‘risidagi” Qonunning 5-bobi, “Ta‘lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi” va 45-moddasida “Pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari” Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat

va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog xodimlar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanadi, o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro‘cini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi.

Ta‘lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqlari, sha‘ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘ci davlat himoyasi ostida bo‘ladi.

Ta‘lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatiga aralashishga, ta‘lim oluvchilarning bilimlarini to‘g‘ri va xolis baholashga ta‘sir ko‘rsatishga, shuningdek ushbu pedagog xodimlarning xizmat majburiyatlarini bajarishga to‘sqinlik qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Pedagog xodimlar quyidagi huquqlarga ega:

o‘z sha‘ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘cini himoya qilish;

o‘quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, o‘qitish uslubiyotini ishlab chiqish, shuningdek tegishli o‘quv fanlari, kurslari, modullaridan foydalanish, ijodiy faollik ko‘rsatish;

zamonaviy pedagogik shakllarni, o‘qitish va tarbiya vositalarini, usullarini erkin tanlash hamda ulardan foydalanish;

kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish;

o‘quv, ilmiy va uslubiy yo‘nalishlardagi axborot-resurs markazlarining xizmatlaridan bepul foydalanish;

davlat ta‘lim standartlarini, davlat ta‘lim talablarini, malaka talablarini, o‘quv rejaları va o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, eksperimental faoliyatda ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish;

ta‘lim tashkilotini boshqarishda, shuningdek ta‘lim tashkilotining faoliyati bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

kasaba uyushmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari a‘zosi bo‘lish, xodimlarining vakillari bo‘lish, fuqarolik jamiyati boshqa institutlari faoliyatida qatnashish;

o‘z kasbiy huquqlarini va umumiy manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish uchun pedagog xodimlarning jamoat birlashmalariga birlashish;

o‘z kasbiy faoliyatiga aralashuvdan himoyalaniish;

davlat sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko'rikdan o'tish (davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlari uchun);

ta'lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish.

“Ta'lim to'g'risidagi” Qonunning 5-bobi, “Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi” va 46-moddasida “Pedagog xodimlarning majburiyatlari” quydagilar.

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;

o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'tkazishi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;

ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi;

voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;

ta'lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etishi;

o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi;

tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.

Pedagog xodimlarning zimmasida qonunchilikka, shuningdek ta'lim oluvchi va ta'lim tashkiloti o'rtasida tuziladigan shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Pedagog xodimlarga pedagogik faoliyatni amalga oshirishda axloq va etika normalariga zid harakatlar sodir etish taqiqlanadi.

Pedagog xodimlarning kiyim-boshiga doir talablar ta'lim tashkilotlari tomonidan belgilanadi

Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi faoliyatining maqsad va vazifalari.

“Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida (yangi tahrirda)”gi Qonunning 3-moddasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

jismoniy tarbiya — madaniyatning insonni jismoniy tarbiyalash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, uning qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish, sogʻlom turmush tarzi koʻnikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashtirish maqsadida jamiyat tomonidan yaratiladigan hamda foydalaniladigan qadriyatlar, normalar va bilimlar yigʻindisidan iborat boʻlgan qismi;

jismoniy tarbiyalash — yuksak madaniyatga ega boʻlgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sogʻlom insonni shakllantirish maqsadida shaxsni tarbiyalashga, insonning jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirishga, uning jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan jarayon;

jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri tashkilotchisi — oʻz tashabbusi bilan jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri oʻtkazayotgan va (yoki) bunday tadbirni tayyorlash hamda oʻtkazishni tashkiliy, moliyaviy va moddiy jihatdan taʼminlashni amalga oshirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

Quyidagilar jismoniy tarbiya fani oʻqituvchisi faoliyatining asosiy maqsadi hisoblanadi:

- bolalarga sportga muhabbatni singdirish;
- oʻsib kelayotgan avlodda sport bilan shugʻullanish, sogʻlom turmush tarzini olib borish, jismoniy va maʼnaviy komillikka intilish muhimligi tushunchasini shakllantirish;
- bolalarni salbiy taʼsirlardan himoya qilishga va zararli odatlardan xalos etishga doir chora-tadbirlar majmuini amalga oshiradi.

Quyidagilar jismoniy tarbiya fani oʻqituvchisi faoliyatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- bolalarni jismoniy tarbiyalashning zamonaviy shakllari xamda usullarini;
- bolalarning jinsi va yoshiga qarab ularga sport koʻnikmalarini singdirishning;
- sportga qobiliyatli bolalarni ixtisoslashtirilgan sport taʼlim muassasalarida oʻqitish uchun tanlab olishning ilmiy asoslangan tizimlarini ishlab chiqishni xamda joriy etishga koʻmaklashishni tashkil etadi.

Jismoniy tarbiya oʻqituvchisining asosiy vazifasi hisoblangan mashgʻulotlarni tashkil etish va oʻtkazish Davlat talablari (oʻquv reja, dastur, darslik va qoʻllanma) asosida belgilanadi.

O‘quv mashg‘ulotlari ta’lim-tarbiya ishlarining asosiy tashkiliy shakli ekan, bu jarayonda quyidagilarga amal qilinishi lozim:

1. Mashg‘ulot qat’iy jadval bo‘yicha belgilangan aniq muddatda olib borilishi kerak.

2. Mashg‘ulot o‘qituvchi rahbarligida butun guruh bilan va alohida o‘quvchilar bilan ishlash shaklida olib boriladi.

3. Mashg‘ulot o‘quv dasturi mazmuniga qarab turli metod va vositalarda olib boriladi va ta’lim tizimining bir qismi sifatida tugallangan bilim va ko‘nikma beradi va navbatdagi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirmoq uchun zamin yaratadi.

Oldimizda turgan dolzarb vazifa — mustaqil hayotiy pozitsiya, ijtimoiy faollik, yuksak aqliy va ma’naviy salohiyatni shakllantirishga qaratilgan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, ya’ni ta’lim-tarbiya berishning noyob tizimi — “o‘zbek modeli”ni hayotga yanada kengroq tatbiq etishni taqozo etadi.

Shuningdek, “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida (yangi tahrirda)”gi Qonunning 36-moddasida “Tegishli ma’lumotga va kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan shaxslarning jismoniy tarbiya va sport sohasida, shu jumladan davolash jismoniy tarbiyasi sohasida pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo‘l qo‘yiladi” deb belgilab qo‘yilgan.

Yuqoridagi Qonunlarning mazmum mohiyatidan kelib chiqib umumiy o‘rta ta’im maktablarda dars jarayonlarni tashkil etiladi.

Dars – ta’limning asosiy shakli ekan, u ilmiy, tizimli, tushunarli, ongli va faol bo‘lishi, bilimlar mustahkam o‘zlashtirilishi va amaliy ko‘nikmalar shakllanishi o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari e’tiborga olingan holda tashkil etilishi mashg‘ulot oldiga qator didaktik talablarni qo‘yadi.

Jumladan:

1. Har bir dars aniq maqsadni ko‘zlagan holda puxta rejalashtirilmog‘i lozim. Bu jarayonda jismoniy tarbiya o‘qituvchisi darsning ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadini belgilaydi.

2. Mashg‘ulot bosqichlarini to‘g‘ri taqsimlay olish lozim. Ya’ni mashg‘ulotni qanday boshlash, uni o‘tkazish va qanday tamomlash oldindan hal qilib olinishi kerak.

3. Mashg‘ulot o‘tiladigan joy sanitar-gigienik talablarga javob berishi kerak.

4. Har bir o‘quvchi texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirilishi shart.

5. Har bir mashg‘ulot mavzuga mos ravishda o‘quvchilar soni va yoshiga mos ravishda kerakli vositalar bilan jihozlanmog‘i lozim.

6. Har bir mashg‘ulot aniq g‘oyaviy, mafkuraviy izlanishga ega bo‘lishi lozim. O‘qituvchi esa ulardan tarbiyaviy maqsadda tarbiya metodlaridan samarali foydalanmog‘i lozim.

7. Har bir mashg‘ulot xarakteriga mos usul, shakl va vositalardan samarali foydalanilgan holda tashkil etilishi lozim.

8. Mashg'ulot uchun ajratilgan soat va daqiqalarni tejash va unumli foydalanish darkor.

9. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'zaro faol munosabatda bo'lishi lozim.

10. Mashg'ulotlar butun guruh bilan va har bir o'quvchi bilan, ularning shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olingan holda olib borilish kerak.

11. Mashg'ulotning mazmuni va xarakteriga qarab xalqimizning boy ma'naviy merosidan va ma'naviy qadriyatlaridan samarali foydalanish.

1.2. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining ta'lim jarayoni tashkil etish va boshqarish mahorati.

Pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimalardan iborat? Ularni egallash uchun nimalarni bilish kerak? **Mahorat** – arab tilida “mohirlik”, “ustalik”, “epchillik” ma'nolarini anglatadi. Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi «pedagogik mahorat» tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, «Pedagogik ensiklopediya»da quyidagicha izohlangan: «O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondosh fanlar sohasini yaxshi tahlil etaoladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis». Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin: 1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatkichi. 2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi. 3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi. 4. O'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

1. Pedagog shaxsining insonparvarlik yo'nalishiga ega bo'lishi: ya'ni, ta'lim oluvchilarning dini, irqi, millati, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, ularning barchasiga bir xil munosabatda bo'lishni, o'qituvchining o'quvchini o'zining farzandidek yaxshi ko'rib, mehr bilan uning xohishi va irodasini to'g'ri yo'naltirish asosida o'qitishi va erkin fikrlovchi, faol, barkamol avlod qilib tarbiyalashi tushuniladi.

2. Kasbiy bilimdonlik, o'qituvchilar ta'lim-tarbiyaning metodologik asoslari, mamlakatning iqtisodi va siyosati, mutaxassislik fanlari, ularni o'qitish metodikasi, pedagogika va psixologiyadan professional bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi.

3. Ta'lim beruvchidan pedagogik qobiliyatga ega bo'lishi talab etiladi. Shaxsning muayyan faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan

va buning uchun zarur bilimlarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatga qobiliyat deyiladi.

4. Pedagoglar pedagogik texnika sohiblari bo'lishlari zarur. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari: pedagogning nutq malakalari; pedagogning mimikasi va pantomimikasi; pedagogning o'z psixologik (ruhiy) holatini boshqara olishi; aktyorlik va rejissyorlik mahoratlari kompleksidan iborat.

Pedagog shaxsining insonparvarlik yo'nalishga ega bo'lishi ta'lim oluvchi shaxsini hurmat qilishi, ayrim muammolarni o'zini ta'lim oluvchi o'rnida sezib hal etishi, adolatli bo'lishi, pedagogik faoliyatning bosh maqsadini – jamiyat, davlat va oila oldida o'zining mas'uliyatini chuqur anglaydigan, erkin fikrlovchi, faol, ma'naviyati yuksak, Vatanparvar, elparvar, barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat deb bilishi kerak. Buyuk mutafakkir bobokolonimiz Ibn Sino o'qituvchi shaxsida halollik, adolat, poklik, mehnatsevarlik, fidoyilik, odamgarchilik kabi xislatlarni qadrlagan.

Insonparvar mahoratli pedagog faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oladi va uning aniq vazifalarini belgilab beradi. Insonparvarlik deganimizda, ta'lim oluvchilarning dini, irqi, millati, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, ularning barchasiga bir xil munosabatda bo'lish tushuniladi. Har bir ta'lim oluvchiga insonparvarlik nuqtai nazaridan yondoshish darkor.

Ta'lim-tarbiya oluvchilarga nisbatan, ta'lim beruvchining yuzida me'yorida jiddiylik, me'yorida talabchanlik, me'yorida tabassum, cheksiz mehr-muhabbat, cheksiz xayrihohlok omuxta bo'lmog'i darkor. Chunki, o'qituvchining ma'naviy-axloqiy va tashqi qiyofasi orasidagi uzviylik, mutanosiblik ma'lum darajada o'quvchilariga ko'chib o'tadi. L.N.Tolstoy ta'biri bilan aytganda, kasbini sevadigan, o'qitadigan fanini chuqur biladigan o'qituvchi yaxshi o'qituvchi. O'qitadigan fanidan bilimi sustroq, biroq o'quvchilarini ularning ota-onalaridek qadrlaydigan o'qituvchi, oldingi o'qituvchidan yaxshiroq. Kasbini sevadigan, o'qitadigan fanini chuqur biladigan, o'quvchilarini ularning ota-onalaridek yaxshi ko'radigan o'qituvchi mukammal o'qituvchi.

Bolalarni seva olish, ularga o'z ota-onalaridek mehribonlik ko'rsata bilish, mohir pedagogning muhim insonparvarlik fazilatlaridan biridir. Pedagog har doim, hamma vaqt ta'lim oluvchilarga mehribonlik ko'rsata olishi lozim. O'z ta'lim oluvchisi to'g'risida shoshma-shosharlik bilan xulosa chiqarmasligi, ularning eng kichkina yutuqlarini ham ilg'agan holda ko'proq rag'batlantirishi kerak.

Ta'lim oluvchilar orasida o'qituvchining "sevimli" yoki "yomon" ko'radigan tarbiyalanuvchilarning bo'lishi, o'quvchilarda ustozga bo'lgan hurmatni so'ndiradi. Har qanday bo'sh va past o'zlashtiradigan, "tarbiyasi qiyin" ta'lim

oluvchi bilan ishlaganda pedagog o'quvchidagi bilinar bilinmas, lekin eng muhim ijobiy fazilatlarni topa olishi va undagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda ulardan mohirlik bilan foydalanishi kerak.

Pedagog shaxsiy fazilatlari tizimida pedagoglik faoliyatga bo'lgan ehtiyoj nomli muhim kasbiy yo'nalish mavjudki, u pedagogik mahoratni egallashda alohida ahamiyat kasb etadi. Ehtiyoj arab tilida zarurat, zaruriyat, muhtojlik, ichki undovchi ma'nolarini anglatadi. Bunday professional xususiyatlarni S.Baranov va boshqa olimlar quyidagicha izohlashadi: pedagogik faoliyatga bo'lgan ehtiyoj professional mahoratdagi pedagog shaxsiy fazilatlarini belgilovchi qimmatli baho bo'lib, u o'zida: "...bolalarga qiziqish va muhabbatni; pedagogda ishga havasni; psixologik-pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlikni mujassamlashtiradi".

Pedagogning ta'lim oluvchilarga nisbatan mehribonligi, hayrixohligi, bolalarni sevishi, insoniy talabchanlik asosida ko'rilmog'i lozim. Insonparvarlikka asoslangan talabchanlik ta'lim oluvchilarni intizomga chaqiradi, o'z xulq-atvori to'g'risida o'ylashni, o'ziga boshqalar ko'zi bilan qarashni, salbiy xususiyatlarini qayta tarbiyalashni, ijobiy fazilatlarini takomillashtirishni yo'lga qo'yishga da'vat etish muddaosiga erishadi. Buning uchun pedagog talabchanlikning me'yorini bilishi lozim. Talab istiqbolli bo'lib, bolaning kelajak hayoti, faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ijtimoiy hayot qonunlarini aniq tushunish, milliy-axloqiy qadriyat, mafkura mazmunini anglash, ta'lim oluvchilarda ajdodlar ruhiga hurmatni, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, pedagog shaxsiy fazilatining muhim omili, o'tmish merosini mukammal bilish, qadriyatlar, urf-odatlar mazmunini anglash, ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarini tushunish orqali ilmiy dunyoqarashni o'zida tarbiyalay olgan bo'lishi kerak. Ulug'larimiz ta'biri bilan aytganda, tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lmog'i darkor.

Kasbiy bilimdonlik pedagogik mahoratning tub asosini tashqil qiladi

O'qituvchi ta'lim-tarbiyaning metodologik asoslari (Milliy va umumbashariy qadriyatlar, "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun, Prezident Formon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Xalq ta'limi vazirligining buyruqlari va boshqa me'yoriy hujjatlar), mamlakatning iqtisodi va siyosati, mutaxassislik fani, uni o'qitish metodikasi, pedagogika, psixologiya va yondash fanlar asoslari majmuyidan tashkil topadigan professional bilimlarga ega bo'lishlari talab etiladi. Shuning bilan birgalikda, O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'li mohiyati, milliy tarbiya mohiyati va mazmunini teran anglashi, chuqur ilmiy nazariy salohiyati, pedagogik ijod, o'z fanining tarbiyaviy imkoniyatlarini mukammal bilishi, pedagogik bilimlarni takomillashtirishga intilish, mamlakatimiz Prezidentining

ichki va tashqi siyosatidan xabardorlik, o'zbek xalqining an'analari, qadriyatlarini, urf-odatlarini yaxshi anglashi, siyosat, tarix, madaniyat, ma'naviyat, adabiyot va san'at, axloqshunoslik, dinshunoslik, huquqshunoslik, o'lkashunoslik, texnikaga oid ma'lumotlardan xabardorlik, etnopedagogika, etnopsixologiyaga oid bilimlarni chuqur egallagan bo'lishlari lozim.

Kasbiy bilimlar negizida pedagogning xatti-harakati va xulqining asosini tashkil etuvchi, pedagogik prinsiplar va qoidalar vujudga keladi. Bu prinsip va qoidalarni har bir pedagog o'z tajribasiga va egallagan bilimlariga tayangan holda yaratadi va ularni doimiy ravishda takomillashtirib boradi.

Pedagogik qobiliyatlar

Layoqat - Psixologiyada tug'malik alomatlar bor individual sifatlar *layoqatlar* deb yuritiladi va uning ikki turi farqlanadi: 1) **tabiiy (tug'ma) layoqat**- odamdagi oliy nerv tizimi faoliyatining xususiyatlari, miya yarim sharlarining qanday ishlashi, qo'l-oyoqlarning biologik va fiziologik sifatleri, bilish jarayonlarini ta'minlovchi sezgi organlari - ko'z, quloq, burun, teri kabilarning xususiyatlaridan tashkil topadi. **Ijtimoiy layoqat** - bola tug'ilishi bilan uni o'rab turgan atrof-muhit, muloqot uslublari, so'zlashish madaniyati kabi ko'plab omillar ta'sirida tug'ma layoqat tarbiyalanib qobiliyatga aylanib va rivojlanib boradi. Demak, layoqat tug'ma bo'lib, qobiliyat tarbiya maxsulidir.

Shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatiga **qobiliyat** deyiladi.

Pedagogika va psixologiya fanlari sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda pedagogik qobiliyatlarning quyidagi turlari ko'rsatilgan: didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, perseptiv qobiliyat, nutqiy qobiliyat, tashkilotchilik qobiliyati, obro'ga egalik qobiliyatlari, kommunikativ qobiliyat, diqqatni taqsimlash qobiliyati. kelajakni ko'ra bilish qobiliyati, konstruktiv qobiliyatlar.

1. Didaktik qobiliyat – murakkab bilimlarni ta'lim oluvchilarga osongina tushuntira olishni nazarda tutadi.

2. Akademik qobiliyat – ta'lim beradigan fani bilan birgalikda, o'quvchilarining qiziqishlaridan paydo bo'ladigan har qanday savollarga javob beraoladigan o'qituvchida akademik qobiliyat shakllangan bo'ladi.

3. Perseptiv qobiliyat – o'quvchi qalbida yoki tashqi qiyofasida kechayotgan xar qanday katta-kichik o'zgarishlarni qisqa daqiqalarda ilg'ab olib, unga mos insonparvar munosabatni bildiradigan ta'lim beruvchida perseptiv qobiliyat shakllangan bo'ladi.

4. Nutqiy qobiliyat - bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchining nutqi, ixcham, ma'noli, tushunarli, ravon, oxangdor, jarangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'ladi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati – bu darsda va undan tashqari paytlarda ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va ularning natijador ijrosini ta'minlash qobiliyati.

6. Obro' orttirish qobiliyati – zamonaviy pedagog bu qobiliyatga o'zining imijiga to'laqonli rioya etish orqali erishadi.

7. Kommunikativ qobiliyat - muomala va muloqot o'rnatish, bolalarga kirishib ketish qobiliyati, tarbiyalanuvchilarga to'g'ri yondoshish yo'lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtayi nazardan samarali o'zaro munosabatlar o'rnatish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

8. Diqqatni taqsimlash qobiliyati- o'qituvchining bir vaqtning o'zida diqqatini bir necha o'quvchiga yo'naltirish, ya'ni bir necha ob'ektlarga bir davrning o'zida o'z munosabatini bildirish. Bu xislatni o'quvchilarida ham tarbiyalash. Ta'lim beruvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari- hajmi, uning kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilina olishi va ishga solinishning taraqqiy etganligi juda muhim. Qobiliyatli, tajribali ta'lim beruvchi o'z fikrini (yoki tarbiyalanuvchi fikrini) bayon qilishda diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha tarbiyalanuvchilarni o'z diqqat-e'tiborida tutadi, toliqish, e'tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzilish hollarini e'tibordan qochirmaydi, nihoyat o'z shaxsiy xatti-harakatlarini (mimikasi, pantomimikasi, yurish- turishni) ham kuzatib boradi.

9. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati - insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati. Bu o'z harakatlarning oqibatlarini oldindan ko'rishda, tarbiyalanuvchining kelgusida qanday odam bo'lishi haqidagi tasavvur bilan bog'liq bo'lgan shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarining taraqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bog'liq bo'ladi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchining kelajagini oldindan ko'ra bilishi bilan birgalikda, unga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi sabablarni aniqlab, ularni bartaraf etishga kreativ yondashish kerak.

10. Konstruktiv qobiliyat - o'quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat tarbiyalanuvchi shaxsning rivojini loyihalashga, o'quv- tarbiya mazmunini, shuningdek, tarbiyalanuvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari

Pedagogik texnika – pedagogik mahoratning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, o‘qituvchning o‘quvchilarga ta’sir o‘tkazish vositasi hisoblanadi. Pedagogik texnikani yetarli darajada egallagan o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqatga kirishish mahorati yuqori bo‘ladi. Zarur so‘z va gapni kerakli paytda, talab etiladigan ohanda ishlatish, qanday qarash, imo-ishoralardan tez va aniq foydalanish, eng keskin va kutilmagan pedagogik vaziyatlarda ham osoyishtalik va aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatini saqlab qolish imkonini beradi.

Pedagogik ta’sir ko‘rsatish jarayonida o‘qituvchining pedagogik texnika sohasidagi barcha malakalari bir paytda kompleks namoyon bo‘ladi. Ular, o‘qituvchining har qanday pedagogik vaziyatda ham o‘zining ruhiy holatini boshqara olishi, nutqi, imo-ishorasi, mimik harakatlari bilan birgalikda sodir bo‘ladi.

Pedagogik texnika malakalarining o‘zlashtirilish va shakllanish dinamikasi, o‘qituvchining kasbiy tayyorgarlik darajasiga, o‘zining ustida ishlashiga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, ta’lim-tarbiyaga doir barcha omillar, o‘qituvchining o‘z ustida tinimsiz ishlashiga borib taqaladi.

Pedagogik texnika quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

nutq malakalari;

pedagogning mimikasi va pantomimikasi;

o‘z psixologik(ruxiy) holatini boshqara olishi;

aktyorlik va rejissorlik mahorati.

Avvalo pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida **pedagogning nutq malakalarini**, ya’ni savodli gapirish, nutq ravon, qisqa, lo‘nda, chostatali, mazmunli, chiroyli va tushunarli, ta’sirchan qilib bayon etish, o‘z fikr va his-tuyg‘ularini so‘zda aniq ifodalash malakalarini aytib o‘tish mumkin. Olimlarning hisoblashlariga ko‘ra o‘qush uchun ajratilgan vaqtning taxminan 1/4 - 1/2 qismi o‘quvchilarning o‘qituvchi nutqini eshitishlari va tushunishlari uchun sarflanadi. Demak, o‘quv materialining o‘quvchilar tomonidan puxta o‘zlashtirilishi o‘qituvchi nutqining kamoloti va yorqinligiga bog‘liq ekan.

Haqiqatan ham, A.Avloniy ta’kidlaganidek “So‘z insonning daraja va kamoli, ilm va fazlni ulug‘lab ko‘rsatadurg‘on tarozisidir. Aql sohiblari kishilarning fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so‘zlagan so‘zidan bilur”. Ayniqsa, o‘quvchilar o‘qituvchi talaffuzi, nutq texnikasiga katta e’tibor berishadi.

Duduq, kirish, tovushga taqlid kabi so‘zlarning, masalan “aytaylik”, “xo‘sh”, “anaqa”, “o‘tga-bo‘tga”, “demak”, “nimaydi” yoki bitta so‘zni ketma-ket uch martagach takrorlash kabi so‘zlarning o‘rinsiz ravishda ko‘p takrorlanishi

o'quvchilarning ensasini qotiradi. Bunday holning o'quvchilar orasida uchrab turishi achinarli hol.

Hozirgi kunda nutq texnikasiga doir mashqlar tizimi ishlab chiqilgan. Bu tizim teatr pedagogikasi tajribalariga tayanadi hamda nutq paytida to'g'ri nafas olish, talaffuz va diksiyani sozlash kabi ko'nikmalarni takomillashtirishga qaratilgan. Mazkur tizimni o'zlashtirish uchun o'z ustida muntazam ishlagan har qanday inson jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi o'qituvchi va murabbiylar, o'z nutqini to'g'rilay oladi.

Kishining ovozi, tabiati o'zgarmas degan fikrlarga qo'shib bo'lmaydi. Hozirgi zamon fiziologiya faninig dalolat berishicha ovoz sifatini mutlaqo o'zgartirish mumkin. Bu tarixiy faktlar bilan ham isbotlangan. Masalan, Demosfen o'z duduqligini mashq qilish tufayli o'nlab, qadimgi Rimning buyuk notig'iga aylangan.

Pedagogik faoliyatda mimika va pantomimikaning o'z o'rni va ahamiyati bor.

Pantomimika. Gavda, bosh, qo'llar va oyoqlarning harakatiga - pantomimika deyiladi. Pantomimika harakatlaridan mohir pedagoglar o'z fikrlarini bildirishda, obrazlar yaratish kabilarda foydalanadilar. O'qituvchilar dars jarayonida gavda harakatlariga alohida e'tibor qaratishlari kerak. Jumladan, salomlashishda gavdani tik tutib, ikki qo'lni har bir o'quvchini bag'riga bosmoqchdek tutishi, bunda o'ng oyoq, chap oyoqqa nisbatan 15-20 sm oldinga tashlangan bo'lishi, ya'ni o'quvchilarini yugurib borib bag'riga bosmoqchidek ma'no anglatilishi, tavozei bilan o'quvchilarni o'tirishga taklif etishi, o'rganilayotgan mavzuning muhim joylarini ta'kidlashda, o'quvchilar tomon ildam, jasoratli qadamlar tashlab oldinga yurishi, aytgan fikrlarini asoslashda orqaga, ya'ni sinf doskasi tomon yurishi kerak. Yon tomonga yurish taklif etilmaydi. O'qituvchining qollari kaftlarini o'quvchilarga qarata silkitib o'tiringlar deyish mumkin emas. Qo'llarning bunday harakati "yuzing qursin" ma'nosini anglatadi. Umuman, o'qituvchining barcha harakatlari nazokatli, oddiy va tabiiyligi bilan ajralib turishi lozim. Gavdani tutish estetikasiga rioya qilish, salbiy odatlar (orqa-oldga tomon chayqalish, bir oyoqdan ikkinchisiga og'irlikni tashlash, stol suyanchig'ini tutib turish, stol yoki o'quvchi partasiga qo'llari kaftlarini qo'yib enkayib turish, qo'lda darsga aloqasiz buyumlarni ko'tarib yurish, bosh qashish, burun qoqish, quloq kavlash va h.k.z)dan xoli bo'lishlari talab etiladi

Mimika. Insonning yuzidagi muskullari, qoshi, ko'zi, lablari vositasida o'z fikri, hissiyoti, ruhiy holatini ifodalash san'atiga - **mimika** deyiladi. Ba'zan, o'qituvchining yuz ifodasi uning gapidan ko'ra kuchliroq ta'sirga ega bo'ladi. Imo-ishora va mimika axborotning emotsional ta'sir kuchini oshirib, uni tarbiyalanuvchining yaxshi qabul qilishiga sabab bo'ladi.

O'quvchilar o'qituvchining fikrini uning yuz ifodasidan bilib oladi. Shuning uchun o'qituvchi o'zining ichki kechinmalarini yashira olishi ham lozim. Mimik harakatlari asosan o'quv tarbiya maqsadlarida foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik faoliyat jarayonida, pedagogning o'z psixologik (ruhiy) holatini boshqaraolishi muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchining o'ziga eng qulay hissiy (ijodiy) jiddiylik, o'quvchilariga va atrofidagi boshqa odamlarga nisbatan doimo insonparvarlik, umidbaxshlik, xayrixohlik, xursandchilik kayfiyatini saqlash, o'zining hissiy dam olishini tashkil etish mahoratiga ega bo'lishi, juda muhim rol o'ynaydi. Bu mahorat, pedagogning kasbiy faoliyati jarayonida o'zini-o'zi nazorat qilishlarini ta'minlaydi, ko'p yillar davomida sog'lom asab tizimini saqlab qolish, asabiy buzilishlardan, hissiy va aqliy zo'riqishlardan o'zini tiyishga va asrashga yordam beradi.

Pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatishni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun, **pedagog aktyorlik va rejissorlik** mahoratlarini egallagan bo'lishi zarur.

Aktyor (fr. acteur, lot. actor) ijro etuvchi, rejissyor (fr. regisseur, lot. rego) boshqaruvchi ma'nolarini anglatadi. Bu borada sharq mamlakatlarida ulug'lanib, "Al-Muallim as-soniy" (Arastudan keying "Ikkinch muallim"), "Sharq Arastusi" deb, shuhrat qozongan, bobokolonimiz Abu Nasr Forobiy (873-950) ma'rifat-tarbiyalanuvchining xohishi va irodasini kerakli yunalishda boshqarish san'atidir, degan edi. Shunday ekan, mahoratli o'qituvchi aktyorlik va rejissyorlik sirlarini o'rganib, bolalar bilan muomala qilishda nafaqat ularning aql-idrokiga, shuning bilan birgalikda his-tuyg'ulariga ham ta'sir ko'rsatish malakalarini egallab, professional faoliyatini san'at darajasiga olib chiqishi talab etiladi.

Pedagogik texnika shunday yig'indiki, u pedagogning har qanday pedagogik vaziyatlarda, tarbiyalanuvchilarga samarali ta'sir ko'rsatishiga yordam beradi.

Talim beruvchilarning pedagogik mahoratga doir bilimlarga ega bo'lishi dastlabki qadam hisoblanadi, ularni kasbiy-shaxsiy faoliyatga mohirlik, ustalik va epcillik bilan san'atkorona qo'llash asosiy maqsad hisoblanadi. Masalan, ayrim o'qituvchilarda "bu o'quvchidan kelajakda yaxshi inson chiqmaydi" degan kelajakni ko'ra bilish, bashorat qilish qobiliyatini ko'ramiz. Aslida bu o'qituvchi o'sha o'quvchisining "yomon" inson bo'lishi sabablarini o'z vaqtida bartaraf etish ustida ishlashi lozim. Chunki, o'sha bitta bola ham ma'lum yoshga etgach otanasini, oilasini boqishi, mamlakatning uning zimmasiga tushadigan yukini ko'tarishi talab etiladi. Shunday ekan, biz o'qituvchilarning biror o'quvchimizni e'tibordan chetda qoldirishimiz olloh oldida gunoh, jamiyat oldida jinoyat hisoblanadi, uning javobi bor. Xuddi shuningdek, konstruktiv qobiliyatni olaylik. Darsning loyihasini ishlab chiqdik. Shu loyiha asosida dars o'tsak, qaysidir

o'quvchilarimizning mavzuni o'zlashtirmasligini oldindan bilamiz. Demak, tuzulgan bu dars loyihasi yaroqsiz, boshqa mukammal loyiha ustida ijodiy izlanishimiz, ishlashimiz kerak. Chunki biz o'qituvchilar har bir o'quvchimizni uning eng yaqin intellektual rivojlanish darajasidagi kafolatlangan bilimlar bilan qurollantirishga mas'ulmiz.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchining kasbiy mahorati, nafaqat darslarning sifatli va samarali, natijador bo'lishini, xalqaro baholash tashkilotlari talablariga yuqori darajada javob berishlarini ta'minlaydi, shuning bilan birgalikda, ta'limning bosh maqsadi bo'lgan jamiyat, davlat va oila oldida o'zining mas'uliyatini chuqur anglaydigan, erkin fikrlovchi, faol, ilmni, axloqni, mehnatni va haqiqatni sevadigan, kamtar fuqarolarni tarbiyalash ishiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Pedagogik faoliyatining huquqiy asoslarini izohlab bering?
2. Ta'lim to'g'risidagi Qonun qachon qabul qilingan?
3. Ta'lim to'g'risidagi Qonunda necha bob, nechta moddadan iborat?
4. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi faoliyatining maqsad va vazifalari qanday?
5. Darsga qanday didaktik talablar qo'yiladi?
6. Pedagogik faoliyatni tashkil etish yuzasidan tushuncha bering?
7. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari ayting?
8. Mahorat va pedagogik mahorat tushunchalari farqlab bering?
9. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari qanday?
10. Pedagog shaxsining insonparvarlik yo'nalishiga ega bo'lishi?

2-MAVZU:

**JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHISINING
KASBIY KOMPETENTLIGINIG NAZARIY ASOSLARI.**

Ma’ruza mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi

<i>O‘quv soati:</i> 2 soat	<i>Tinglovchilar soni:</i> 25 ta
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli:</i>	Kirish – ko‘rgazmali ma’ruza. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi asosida.
<i>Ma’ruza rejasi:</i>	2.1.Kompetentlik va kompetensiya tushunchasi va mohiyati. 2.2.Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari.
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> “Kompetentlik” tushunchasining mohiyati. Kasbiy kompetentlik, kasbiy kompetentlikni rivojlantiruvchi ehtiyojlar. Pedagogning o‘z ustida ishlashi. Pedagogning o‘z ustida ishlash bosqichlari. Pedagogning o‘z ustida ishlash modeli. O‘zini o‘zi tahlil qilish. O‘zini o‘zi baholash. O‘zini o‘zi samarali baholash omillari. Pedagogning o‘z-o‘zini rivojlantirishi.	

<p><i>Pedagogik vazifalar: pedagog</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Kompetentlik va kompetensiya tushunchasi va mohiyatini tushuntirish; • kompetensiya turlari va ularning maqsadi ga to'xtalib o'tamiz; • Kasbiy kompetensiya modeli. Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlarini tushuntirish; • O'zini — o'zi tahlil qilish va zarur narsalarni anglash; o'zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash; 	<p><i>O'quv faoliyat natijalari: tinglovchilar</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Kompetentlik va kompetensiya tushunchasi va mohiyatini o'rganadilar va yozib oladilar. • kompetensiya turlari va ularning maqsadlarni tushunib oladilar; • Kasbiy kompetensiya modeli. Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlarini o'rganib oladilar; • O'zini — o'zi tahlil qilish va zarur narsalarni anglash; o'zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa o'rganib oladilar va o'zlarini tahlil qiladilar.;
<i>Ta'lim metodlari:</i>	Ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, aqliy hujum metodi.
<i>Ta'lim vositalari:</i>	Ma'ruzalar matni, marker, doska, skoch slaydlar, tarqatma materiallar, qog'ozlar.
<i>Ta'lim shakli:</i>	Jamoaviy va kichik guruhlarda ishlash
O'qitish shart-sharoitlari:	Texnik vositalardan foydalanishga va kichik guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki javob, taqdimot, topshiriq.

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi
(1–mashg'ulot)**

<i>Ish bosqichlari va mazmuni</i>	<i>faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchining</i>	<i>tinglovchilarning</i>
I. Kirish bosqichi (15 daqiqa)	1.1. Mavzu nomi bilan tanishtiradi. O'tilayotgan mavzu kirish ma'ruza tarzida tashkil etilishi e'lon qiladi. 1.2. Malaka oshirish davomida modul bo'yicha o'tiladigan mavzular, ularga ajratilgan soatlar (1-slayd) va tinglovchilarni shu o'quv kursini	Eshitadilar. Yozib oladilar.

	<p>muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun kerakli ko'rsatmalar va adabiyotlar bilan tanishtiradi. (2-slayd).</p> <p>1.3. Bugungi mavzu nomi, rejasi bilan tanishtiriladi va unga izoh beriladi.</p>	<p>Eshitadilar, yozib oladilar.</p> <p>Eshitadilar, yozib oladilar</p>
<p>II. Asosiy bosqich (55 daqiqa)</p>	<p>2.1. Mavzuning maqsadi va vazifalari haqida umumiy tushuncha beriladi. Pedagog professional kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari. Kompetentlik va kompetensiya tushunchasi va mohiyati "Aqliy hujum" metodini qo'llab, umumiy savol beriladi: "kompetensiya nima?" "Aqliy hujum" metodidan foydalanishda rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar bilan tanishtiriladi. (1-ilova)</p> <p>Birinchi rejani "insert" texnikasi orqali tahlil qilish topshiriladi va ma'ruza matni tarqatiladi, "insert" texnikasidan foydalanish tushuntiriladi. (2-ilova)</p> <p>Tinglovchilarning bajargan ishlari tahlil qilinadi.</p> <p>2.2. Pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish mahorati va uning tarkibiy qismlari haqidagi ma'lumotlar bilan tinglovchilarni tanishtiriladi. Asosiy pedagogik va didaktik kategoriyalar haqidagi ma'lumotlarni pedagog marker orqali slaydga yozib, proyektor orqali ko'rsatadi. Tinglovchilar bilan hamkorlikda asosiy pedagogik va didaktik kategoriyalarga izoh beriladi. (4-slayd). Ikkinchi rejani "tushunchalar tahlili" metodidan foydalanib mustahkamlanadi.(5-slayd)</p> <p>Tinglovchilarning bajargan taqdimotlari tahlil qilinadi va xulosalanadi.(6-slayd)</p>	<p>Eshitadilar, tahlil qiladilar.</p> <p>Matnni ko'rib chiqadilar va berilgan belgilarni qo'yib chiqadilar.</p> <p>Yozib oladilar.</p> <p>Eshitadilar, yozib oladilar.ekspert varag'ini oladi va guruhda uni tahlil qilib, guruh a'zolaridan biri taqdimot qiladi</p> <p>Tinglashadi, savollar berishadi, yozib olishadilar</p>

<p>III. Yakunlovchi bosqich (10 daqiqa)</p>	<p>3.1.Mavzuni ikkita rejasi asosida xulosa qilib, eng muhim ma'lumotlarga tinglovchilar diqqatini jalb qiladi. 3.2. Muhokamada faol qatnashgan tinglovchilarni rag'batlantiradi. 3.3.Savollar berish orqali bilimlar mustahkamlanadi. (- ilova). 3.4.Tinglovchilarning mustaqil pedagogik tajribani oshirish uchun vazifalar beriladi: (- ilova)</p>	<p>Tinglashadi, savollar berishadi. Savol – javobda qatnashadilar. Yozib oladilar.</p>
---	--	--

2-MAVZU: JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINIG NAZARIY ASOSLARI.

Reja

2.1. Kompetentlik va kompetensiya tushunchasi va mohiyati.

2.2. Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari.

2.1. Kompetentlik va kompetensiya tushunchasi va mohiyati.

Hozirgi zamonda ilmiy texnik taraqqiyot shu darajaga rivojlandiki, natijada insonlarning ish o‘rniga ega bo‘lishga ehtiyoji barcha davrlardagidan ortib ketdi. Ilmiy texnik taraqqiyotning misli ko‘rilmagan rivoji, o‘z navbatida yuqori darajadagi intellektual qobiliyatga ega bo‘lgan kadrlarni talab etmoqda. Bunday kadrlarni tayyorlash har bir mamlakat ta‘limining samaradorligi, unda faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglarning kompetentligi, o‘z o‘rniga loyiqligi, munosibliyi bilan bevosita bog‘langan. Masalan, Fillandiyada o‘quvchilar individual reja asosida ishlashadi. Ularning rejasi e‘lon qilinadi. Ushbu reja bo‘yicha ishlash qo‘lidan kelmaydigan o‘qituvchilar o‘zini o‘zi yopadi, ya‘ni ishsiz qoladi. Yaponiyada har o‘n yilda o‘qituvchilar imtihon qilinadi, undan o‘ta olmaganlar bu kasbda ishlamaydi. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlar ta‘lim tizimi pedagoglari o‘zlarining ustida tinimsiz ishlash orqali, zamon taraqqiyotiga mos kompetentliklarini, ijtimoiy nufuz va mavqelarini saqlab turishadi.

“**Kompetensiya**” tushunchasi lotincha “competere” so‘zidan olingan bo‘lib, “**loyiq**”, “**mos kelmoq**” ma‘nosini anglatadi.

Shuningdek, “**Kompetensiya**” tushunchasi inglizcha “competence” so‘zidan olingan bo‘lib, “**qobiliyat**” ma‘nosini bildiradi. Bu qobiliyat, faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy bilim, ko‘nikma, malaka, mahorat va iqtidorni nomoyon eta olishda ko‘rinadi.

Kompetentlik deganda, aniq vaziyatda kompetensiyani namoyon qila olish qobiliyati tushuniladi.

O‘qituvchining o‘zidagi mavjud, shakllanib bo‘lgan kompetentligini yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyat (harakat) iga **kompetensiyaviy yondashuv** deyiladi.

Kasbiy kompetentlik – o‘qituvchi tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidan iborat.

Kasbiy kompetentlik o'qituvchi tomonidan faqatgina o'zining mutaxassislik fani va uning metodikasiga doir bilimlarga ega bo'libgina qolmasdan, Prezident formonlari va qarorlari, hukumatning qarorlari, xalq ta'limi vazirligining buyruqlari va boshqa me'yoriy hujjatlari, mamlakatning iqtisodi va siyosati, pedagogika, psixologiya va yondosh fanlar bo'yicha integrativ bilimlarga ham ega bo'lishlarini talab etadi.

Pedagog kasbiy kompetentlikka o'zining ustida uzluksiz mustaqil ishlashi orqali erishadi. Mazkur jarayonning natijadorligini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda uzluksiz malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yildi. Shuning bilan birgalikda o'qituvchilarda oldindan mavjud va yangidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotga qo'llashlari, ya'ni ta'lim beruvchining pragmatik bo'lishi ustidan barcha tegishli ma'muriy organlarning mavjud qonunlar doirasidagi korrupsiyadan holi nazoratlari ham talab etilishi lozim. O'qituvchining o'quvchilarini kafolatlangan bilim bilan ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyati uning progmatikligiga misol bo'la oladi. Aslida, kompetent bo'lmagan insonning ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatishi aslo mumkin emas. Afsuski bunday holat uchrab turadi.

Avvalo, o'qituvchida o'zining kasbiy-shxsiy faoliyatiga nisbatan kuchli ehtiyoj bo'lishi zarur.

Ehtiyoj atamasi arab tilida zarurat, zaruriyat, talab, hojat, muhtojlik ma'nolarini anglatadi. Demak, o'qituvchida pedagoglik kasbiga nisbatan sanab o'tilgan sifatlar bo'lishi darkor. Ehtiyoj – ichki undovchi bo'lib, insonni faollashtirish mexanizmi hisoblanadi.

Ehtiyojning muhim xususiyati uning dinamik xarakterga ega ekanligida. Chunki, biror ehtiyoj qondirilishi bilan, yana yangisi paydo bo'laveradi. Shunday ekan, o'qituvchida kasbiy kompetentlikni yuqori darajada egallashga nisbatan, doimiy ehtiyoj bo'lishi talab etiladi.

O'qituvchilarda o'z kasbiy-shaxsiy kompetentligini rivojlantirish ehtiyoji, davlat va jamiyat ehtiyojiga mos kelishi lozim.

O'qituvchi faoliyatida quyidagi kasbiy-shaxsiy ehtiyojlar nomoyon bo'lishi mumkin:

- o'quv pedagogik faoliyatga bo'lgan ehtiyoj;
- shaxsiy faoliyatga bo'lgan ehtiyoj;
- ijtimoiy pedagogik faoliyatga bo'lgan ehtiyoj;
- axborot-kommunikatsion faoliyatga bo'lgan ehtiyoj;
- shogirdlar, hamkasblar va el–yurt e'tirofiga erishishga bo'lgan ehtiyoj.

Ta'limning bosh maqsadini hal etishga qaratilgan o'quv pedagogik faoliyatga bo'lgan ehtiyoj, o'qituvchining Respublika Prezidenti farmon va

qarorlari, Vazirlar mahkamasi qarorlari, ta'limi vazirligining me'yoriy hujjatlari, mamlakatning iqtisodi va siyosatini, o'zi o'qitadigan fan, uni o'qitish metodikasi, pedagogika, psixologiya va yondosh fanlar asoslaridan yetarli darajada bilimlarga ega bo'lishi va ularni amaliyotga yuqori darajada tatbiq eta olishi orqali qondiriladi.

Shaxsiy faoliyatga bo'lgan ehtiyoj o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatiga, hamkasblariga, o'quvchilariga va ularning ota-onalariga munosabatining loyiqligi va munosibliigi ustida tinimsiz izlanishda bo'lishi, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklarining oldini olish va yutuqlarini oshirib borish orqali qondiriladi.

O'qituvchining ijtimoiy pedagogik faoliyatga bo'lgan ehtiyoji, ta'lim oluvchilar jamoasini his eta olishi, ularning tuyg'ularini anglashi, qiziqish va ehtiyojlari, duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarini oldindan ko'ra olishi;

- har bir ta'lim oluvchining individual psixologik xususiyatlarini bilishi;
- darsda va darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy tadbirlarni loyihalash, tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi;
- o'quvchilarda fan, hayot, san'at, ijtimoiy foydali mehnatga qiziqishni oshirish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga yuqori darajada tatbiq eta olishi orqali qondiriladi.

Axborot-kommunikatsion faoliyatga bo'lgan ehtiyoji, o'qituvchining AKT vositalari bilan yetarli darajada ta'minlanganligi, ular yordamida tegishli axborotlarni to'plashi, saralashi va zarur paytda ulardan o'z o'rnida va me'yorida, yuqori darajada samarali foydalana olishi orqali qondiriladi.

Kasbiy kompetentlikning sifatlari

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'zining mavjud ichki imkoniyatlarini yuqori darajada namoyon qilish.

3. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni divergent va konvergent darajasida hal qilish, faoliyat natijalarini to'g'ri baholash, bilim, ko'nikma va malakani izchil rivojlantirib borish. Maxsus kompetentlikning o'zi, quyidagi 6 ta psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentliklar negizida nomoyon bo'ladi.

a) **psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, o‘quvchilar va ta‘lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglab, bartaraf eta olish;

b) **metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta‘lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalardan o‘z o‘rnida va meyorida muvaffaqiyatli foydalanish;

c) **informatsion kompetentlik** – axborot muhitidan zarur, muhim, kerakli, foydali ma‘lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, me‘yorida samarali foydalanish;

d) **kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

e) **innovatsion kompetentlik** – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta‘lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni o‘zlashtirish, ilgari surish va ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

f) **kommunikativ kompetentlik** – ta‘lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, o‘quvchilar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta‘sir ko‘rsata olish.

4) **Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik bilim, ko‘nikma va malakani boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan unumli foydalana olish.

5) **Ekstremal kompetentlik** – favqulodda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishda, **o‘z ustida uzluksiz ishlash, o‘zni-o‘zi rivojlantirish** muhim ahamiyatga ega.

O‘qituvchidan kasbiy-shaxsiy faoliyati yo‘nalishi bo‘yicha **o‘z ustida tizimli ishlashi** irodaviy zo‘r berish, aqliy va jismoniy zo‘riqishni yengib o‘tishni talab etadigan individual psixologik xususiyatdan iborat.

O‘z ustida ishlash quyidagilarda ko‘rinadi:

- kasbiy bilim, ko‘nikma va malakani takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- yangidan-yangi g‘oyalarni o‘zlashtirish;

- ijobiy sifatlarni o'zlashtirish;
- muayyan shaxsiy dunyoqarashni shakllantirish.

Pedagogning o'z ustida ishlashi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- 1) amalga oshirilgan pedagogik faoliyatini tahlil qilish, yo'l qo'yilgan xato kamchiliklarni va yutuqlarni aniqlash asosida tegishli qarorlar qabul qilish;
- 2) qabul qilingan qarorlarga muvofiq, pedagogik faoliyat davomida yo'l qo'yilgan xato kamchiliklarni takrorlamaslik, yangilarining oldini olish va ijodkorlik bilan o'z yutuqlarini rivojlantirib borish;
- 3) qabul qilingan qarorning doimiy bajarilishi yuzasidan shaxsiy nazoratni o'rnatish.

O'zini-o'zi tahlil qilish o'qituvchi o'zining amalga oshirgan kasbiy-shaxsiy faoliyatini tahlil qilish asosida ro'y bergan xato-kamchiliklarni va yutuqlarni aniqlashdan iborat jarayon. O'zini-o'zi tahlil qilish orqali, pedagog o'zini- o'zi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zini-o'zi baholash – o'qituvchining amalga oshirgan faoliyatini divergent tahlil qilishi, uni konvergent fikrlar asosida, to'g'ri xulosalar chiqarishga olib keladi, ya'ni o'zining pedagogik faoliyatini obyektiv baholash imkonini beradi.

O'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini to'g'ri baholashi, uni kasbiy-shaxsiy faoliyatda muvaffaqiyatlar tomon yetaklaydi.

O'qituvchining o'z kasbiy-shaxsiy faoliyatini noto'g'ri, ya'ni past yoki yuqori baholashi, uni loqaydlikka, tanazzulga yetaklaydi.

Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi, pedagogning ham o'zini-o'zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi.

O'zini-o'zi samarali baholash omillari:

- 1) o'zini tushunish va o'zi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish;
- 2) shaxs sifatida o'z qadr-qimmatini, o'zining kasbiy-shaxsiy faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarini to'g'ri aniqlash;
- 3) o'zining o'qituvchilik faoliyatini tahlil qilish asosida o'ziga bergan bahosining, unga nisbatan tashqaridan berilayotgan baholarga mos kelishi o'ta muhim ahamiyatga ega;

O'zini-o'zi to'g'ri baholashi o'qituvchini yangi muvoffaqiyatli marralar sari yetaklaydi, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan, xato kamchiliklardan asraydi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Kompetentlik nazariyasi va uning bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Kompetensiyalar nima?
3. Kompetentlik nima?
4. Pedagog kompetensiyasi haqida nimalar bilasiz?
5. Kasbiy kompetensiyaga ta'rif bering.
6. Jismoniy faoliyatiga oid kompetensiya turlarini tushuntirib bering.
7. Professional kompetentlikni tushuntirib bering.
8. Pedagogik maqsadning o'ziga xosligini qanday bilish mumkin?
9. Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar mavjud?
10. Pedagogning o'z ustida bosqichlarini ayting?

1-AMALIY MASHG‘ULOT MAVZUSI.

3-MAVZU:

**JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHISI
KOMPETENTLIGINING TA‘LIM SIFATINI
OSHIRISHDAGI AHAMIYATI.**

Reja

3.1. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining shaxsiy, kasbiy, umummadaniy, maxsus va tayanch kompetensiyalari.

3.2. Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi faoliyatiga kreativ yondoshuvi.

Tayanch tushunchalar: Pedagog professional kompetentligining ta’lim tarbiya jarayoni sifatini oshirishdagi ahamiyati. Pedagogning tayanch kompetensiyalari. Pedagog faoliyatiga kreativ yondashuvi. O‘qituvchining ijodkorlik sifatлари. Innovatsion jarayon: pedagog va uning faoliyati. Pedagogning kompetensiyaviy piramidasi.

Mashg‘ulotning borishi

I. Mashg‘ulotda “**Aqliy hujum**” metodidan foydalaniladi.

“**Aqliy hujum**” savoli:

1. Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi kompetentligining ta‘lim sifatini oshirish nimalarga bog‘liq?

Tinglovchilarning fikr mulohazalari tinglanadi. Professor-o‘qituvchi esa har bir javobni qabul qiladi va savolga keltirilgan javoblarni to‘ldiradi va umumlashtiradi.

II. “Pinboard” metodi o‘tkaziladi.

“Pinboard metodi —vazifalarni hal etish bo‘yicha g‘oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish va yagona nuqtayi nazarni ishlab chiqish imkonini beradi. Ta’lim beruvchi tomonidan berilgan vazifalarni hal etish bo‘yicha ta’lim oluvchilarga o‘z nuqtai-nazarini ifodalashni taklif etadi. Pinboard metodidan yangi mavzu bo‘yicha birlamchi bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanamiz.

Metodni qo‘yidagicha qo‘llash tavsiya etiladi: ta’lim oluvchilarni rangli kartochkalar yordamida kichik guruhlariga ajratiladi va vazifalar beriladi. Guruhlarga vazifalarni bajarishlari uchun rangli kartochkalar va markerlar tarqatiladi. Berilgan vazifani kichik guruh a‘zolari kelishilgan holda qog‘ozlarga yozib boradi. Guruhdan bitta ishtirokchi yozadi, qolgan ishtirokchilar vazifa javoblarini aytib turadi. Har bir fikr alohida bitta qog‘ozga yoziladi. Keyingi fikr yana bir boshqa rangli kartochkaga yoziladi. Shu tariqa, nechta fikr bo‘lsa, shuncha rangli kartochka ishlatiladi. Vazifani bajarishga 5 daqiqa vaqt beriladi. Vazifa

bajarib bo'lgandan keyin, rangli kartochkalar magnitlar yordamida doskaga mahkamlanadi va taqdimot qilinadi. Taqdimotga 3-5 daqiqadan vaqt ajratiladi. Barcha kichik guruhlar taqdimotidan keyin guruhlar bilan birgalikda bajarilgan vazifalar muhokama va tahlil qilinadi.

“Pinboard” metodi bo'yicha kichik guruhlariga quyidagicha vazifa beriladi:

“Jismoniy tarbiya o'qituvchisining kompetentligini shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?”.

Har bir guruh, javoblar yozilgan rangli kartochkani doskaga ilishadi va umumiy xulosa qilinadi.

III. Mashg'ulotning amaliy qismida tinglovchilar kichik guruhlariga ajratilib, “FSMU” metodi qo'llaniladi.

Raqamli kartochkalar orqali 4 ta kichik guruhlar shakllantiriladi. Har bir kichik guruhga tarqatma materiallar beriladi.

1-guruhga savol:

1. Shaxsiy kompetensiya nima?

F- fikringizni bayon eting

S- fikringizning bayoniga sabab ko'rsating.

M- ko'rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.

2-guruhga savol:

1. Kasbiy kompetensiyani izohlang?

F- fikringizni bayon eting

S- fikringizning bayoniga sabab ko'rsating.

M- ko'rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.

3-guruhga savol:

Umummadaniy kompetensiya haqida fikringiz?

F- fikringizni bayon eting

S- fikringizning bayoniga sabab ko'rsating.

M- ko'rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.

4-guruhga savol:

Maxsus kompetensiya haqida fikringiz?

F- fikringizni bayon eting

S- fikringizning bayoniga sabab ko'rsating.

M- ko'rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.


Har bir kichik guruh berilgan savollar bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bayon etadilar. Topshiriqni bajarishga 10 daqiqa vaqt beriladi. Berilgan vaqt tugagandan

so'ng, kichik guruhlardagi topshiriq varaqalari yig'ib olinadi. So'ngra kichik guruhlar o'z topshiriqlariga berilgan javobni taqdimot qilishadi. Har bir taqdimotchiga 3 daqiqadan vaqt beriladi. Har bir taqdimotdan so'ng savol-javob orqali muhokama bo'lib o'tadi. Boshqa kichik guruhlar a'zolari o'z-fikr mulohazalari orqali berilgan javoblarni to'ldirishi yoki takliflar berishi mumkin.

Professor-o'qituvchi esa har bir taqdimotdan so'ng FSMU bo'yicha berilgan savolga keltirilgan javoblarni to'ldiradi va umumlashtiradi.

Mini-ma'ruza matni:

Kompetensiyani 4 turga bo'lishi mumkin: kasbiy, shaxsiy, umummadaniy, maxsus (1-rasm).



1-rasm. Kompetensiya turlari

Shaxsiy kompetensiya:

- insonparvarlik;
- bolalarni sevishi va mehribonlik;
- adolatli bo'lish;
- talabchanlik;
- bag'rikenglik;
- mas'uliyatlilik va hokazo.

Kasbiy kompetensiya:

- ta'lim berish va o'rganish uchun sharoit yaratish;
- tegishli sport turi uslubiyotini takomillashtirish;
- axborot texnologiyalarini qo'llay olish;
- ta'lim jarayonini boshqarish;
- o'quvchilar bilimi va yutuqlarini obyektiv baholash;

- o'quvchilarda motivatsiya uyg'otish va ularni qo'llab-quvvatlash;
- o'quvchini shaxs sifatida hurmat qilish va uning yutuqlarini tan olish;
- pedagogika va psixologiyani bilish;
- o'z bilimini doimiy takomillashtirish va hokazo.

Umummadaniy kompetensiya:

- kasbiy etika va estetikaga rioya qilish;
- madaniyatli bo'lish;
- umuminsoniy qadriyatlarga egalik;
- mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish;
- boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilish va hokazo.

Maxsus kompetensiya:

- sport turining nazariyasini bilish;
- sport turining tarixi va rivojlanish bosqichlarini bilish;
- sport turining texnikasini o'quvchilarga o'rgatish;
- sport turining taktikasini o'rgatish va hokazo.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilari pedagogik jarayonlarini tashkil etish va uni boshqarishda innovatsion yondashuvlarga asoslanish, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarga ega bo'lish, ixtiyoriy vaziyatlarda o'z-o'zini nazorat qila olish, shuningdek, ta'lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga olgan holda faoliyat olib borish, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga asoslanish zarur bo'lib, bular Pedagogning kasbiy kompetentligini ifodalaydi.

Pedagog professional kompetentligining ta'lim tarbiya jarayoni sifatini oshirishdagi ahamiyati.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi ta'lim muassasasi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalar darajasi, uning tashkilotchilik, tadqiqotchilik, boshqaruvchilik va pedagogik qobiliyat va ko'nikmasi, uning o'z-o'zini rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta'lim olishga bo'lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek, zamonaviy talablar asosida pedagogik jarayonlarni tashkil etish, unda o'quvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlari orqali aniqlanadi. Demak, xar bir pedagogda pedagogning tayanch kompetensiyalari rivojlanishi muhimdir.

1.Kommunikativ kompetensiya 2. Axborot bilan ishlash 3. Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi. 4.Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi 5.Umummadaniy kompetensiyalar 6.Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasida ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslarda tashkil etish, o'quvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish asosida pedagogik jarayonlarning sifat va samaradorligini ta'minlashda zamonaviy

yondashuvlarga asoslanadigan, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan, o‘z-o‘zini va o‘z faoliyatini o‘zi tahlil qiladigan va obyektiv baholay oladigan, boy falsafiy va ma’naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatga ega bo‘lgan, shuningdek, axborotlar to‘plash, tahlil qilish, obyektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashtirish, pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda ta’lim oluvchilar faolligini ta’minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligi va o‘quvchilar faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni oldindan aniqlash asosida ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan ko‘rish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan hamda ta’lim-tarbiya jarayoni subyektiv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish faoliyatni ta’minlash yo‘nalishida zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan pedagogni kompetentlik pedagog deyishimiz mumkin.

Mini-ma’ruzani yuzasidan tarqatma:

Pedagogning tayanch kompetensiyalari turlari!

№	Tushunchalar	Tushunchalarning ta’rifini bering?
1.	Kommunikativ	
2.	Axborot bilan ishlash	
3.	Shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish	
4.	Ijtimoiy faol fuqarolik	
5	Umummadaniy	
6	Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish	

Xulosa o‘rnida: Tinglovchilarga quyidagi rasm berilib, “O‘z ish faoliyatingizni, kompetentlik darajangizni o‘zingiz baholang” degan vazifa beriladi. Har bir tinglovchi o‘z fikrini aytadi .

NAZORAT SAVOLLARI

1. Pedagogning vazifalari.
3. Pedagogning ta’lim-tarbiya jarayonidagi faoliyati va darsga tayyorgarligi
4. Pedagogning pedagogik mahorati.
5. Kompetensiya va kompetentlik
6. Pedagog kompetensiyasining turlari
7. Ta’lim sifatini oshirishda pedagogik kompetentlikni rivojlantirish yo‘llari.
8. Pedagogning kasbiy kompetensiyasi.
9. Pedagogning shaxsiy kompetensiyasi.

10. Pedagog kompetensiyasining turlari.

2-AMALIY MASHG‘ULOT MAVZUSI

4-MAVZU:

**JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHISIGA
QO‘YILADIGAN KOMPETENSIYAVIY TALABLAR.**

Reja

4.1. Umumta‘lim maktablarida jismoniy tarbiya o‘quv fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari.

4.2. Sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo‘llay olish kompetensiyasi.

4.3. Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi.

Mavzu bo‘yicha mini-ma‘ruza o‘tkaziladi.

Mini-ma‘ruza matni:

4.1. Bugungi kunda umumta‘lim maktablarida jismoniy tarbiya o‘quv fanini o‘qitishning maqsad va vazifalarini ayting ?

Ta‘lim tizimida Jismoniy tarbiya- umumiy tarbiyaning bir turi hisoblanib, insonning jismoniy kamolotga erishishiga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir. Jismoniy tarbiya o‘quvchilarni yanada sog‘lom qilib tarbiyalashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanini o‘qitishning **maqsadi** - o‘quvchilarni jismonan baquvvat, epchil, sog‘lom qilib tarbiyalash, salomatligini saqlash, mustahkamlash ularni jismonan yetuk, barkamol bo‘lib yetishishlari, inson salomatligi to‘g‘risidagi, to‘g‘ri ovqatlanish, shaxsiy gigiyenaga rioya qilish kabi bilimlarini hayotda qo‘llay olish, va mashg‘ulotlarda xavfsizlik qoidalariga amal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat

Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanini o‘qitishning **vazifalari** - Jismoniy tarbiya darslarida asosan uchta vazifalar hal qilinadi. Jumladan, ta‘limiy, tarbiyaviy, sog‘lomlashtiruvchi

4.2. Sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo‘llay olish kompetensiyasi.

Ta'limiy- jismoniy tarbiya va sport bo'yicha asosiy tushunchalarni, ularning mohiyatini hamda dasturda mavjud bo'lgan jismoniy tarbiya jarayonida mashqlarni o'quvchilarga o'rgatish tushuniladi. Ta'limiy vazifani amalga oshirishda o'quvchilarda jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi nazariy bilimlar, ya'ni sport turlari, sport anjomlari va ulardan foydalanish hamda xavfsizlik qoidalariga rioya etgan holda yosh-fiziologik xususiyatlariga mos bo'lgan jismoniy yuklamalarni mustaqil ravishda belgilay olish kabi ma'lumotlarni beradi.

Tarbiyaviy- jismoniy tarbiya va sport faoliyatining kerakligicha ta'minlash, jismoniy sifatlarni rivojlantirish va aqliy, estetik tarbiyalar bilan shakllantirib boriladi.

Sog'lomlashtiruvchi-o'quvchilarning organizmlari, sog'lig'ini mustahkamlash har tomonlama jismonan tarbiyalashga qaratiladi.

sog'lomlashtiruvchi mashqlarni kundalik hayotida qo'llay olish;

jismoniy mashqlarni ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish;

sport jihoz va anjomlaridan foydalanishning xavfsiz usullarini o'rgatish;

sog'lom turmush tarziga amal qilish va uni keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etish;

jismoniy tarbiya va sport faoliyatini kerakligicha ta'minlash;

jismoniy sifatlarni rivojlantirish;

O'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab quyidagi vazifalar amalga oshirib boriladi:

- a) organizmni chiniqtirish;
- b) jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Jismoniy tarbiya fani tarkibiga "Salomatlik asoslari", "Sog'lom avlod asoslari" hamda "Hayot xavfsizligi asoslari" o'quv kurslarini singdirib o'qitilishi lozim.

Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirishni boshlang'ich sinflarda o'qitish salomatlikni mustahkamlash, jismoniy sifatlarni (kuch, tezlik, chaqqonlik, chidamlilik, egiluvchanlik va koordinatsiya)ni rivojlantirish, o'yinli

vaziyatlarda oqilona va murakkab hayotiy-amaliy, shuningdek, sportning harakatli turlarini o'zlashtirishga yo'naltiriladi

4.3. Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi.

Boshlang'ich; I-IV-sinflarda o'qituvchi tomonidan darsni tashkil etish va o'tkazish usuli o'quvchilarning ko'p jihatdan yosh xususiyatlariga bog'liq. Mashg'ulotda motorika harakatlarining ustunligi yaxlit metodga berilib, harakat faoliyatini rivojlantirish va o'zlashtirishga qaratilishi, o'quvchilar bilan mashg'ulotlar o'tkazishda mashqlarni to'g'ri nomlash, ularni aniq ko'rsatish va o'z vaqtida xatolarni to'g'irlab borish lozim. Harakatga bo'lgan ehtiyoj bolaning asosiy fiziologik xususiyatlaridan biri bo'lib, uning normal shakllanishi, o'quvchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir.

I-IV -sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiyalashda muhim vazifalar:

sog'lomlashtirish, qaddi-qomatni yaxshilash, oyoqlarda yassilik, X va O simon kasalliklarini rivojlanishini oldini olish;

barkamol jismoniy rivojlanishga ko'maklashish;

salbiy ekologik sharoitlarga chidamliligini oshirish;

fazoviy, tomporal va kuch parametrlarini farqlash, harakat tezligi, muvozanat saqlash, ritm, signallarga javob berish tezligi va aniqligi, harakatlarni muvofiqlashtirish;

shaxsiy gigiyena, kun tartibiga rioya qilish, to'g'ri ovqatlanish, ertalabki badantarbiya, kundalik turmush va jismoniy mashqlarning salomatlikka ta'siri haqida asosiy bilimlarni shakllantirish, mayda motorikani rivojlantirish;

asbob-uskunalar va jihozlardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilishga o'rgatish;

yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, egilish, emaklash va boshqa jismoniy elementlari orqali mashqlar bajarish ko'nikmasini shakllantirish;

mashg'ulotlar davomida mustaqil jismoniy mashqlar, ochiq havoda harakatli o'yinlarni o'ynatish, harakatli o'yin turlari bilan tanishtirish;

o'quvchilarni bo'sh vaqtlarida sportga bo'lgan qiziqishlari intilishlarini shakllantirish va ayrim turlariga moyillikni aniqlash;

mashg'ulot davomida intizom, do'stlarga do'stona munosabat, halollik, ta'sirchanlik, jasurlikni tarbiyalash;

ruhiy jarayonlarning rivojlanishini rag'batlantirish (xotira, fikrlash va boshqalar.)

Yuqori; V-XI-sinflarda darsni tashkil etishda asosiy sport turlari, musobaqalar, asbob-uskuna va jihozlar, xavfsizlik qoidalari va

shikastlanishlarga birinchi yordam ko'rsatish bilan bir qatorda koordinatsion qobiliyatlarni, kuchni, chidamlilikni va moslashuvchanlikni rivojlantirishdir. Mustaqil jismoniy mashqlar odatini rivojlantirish muammolari hal etilishi lozim. Aksariyat darslar irodaviy sifatlarni (mustaqillik, intizom, mas'uliyat hissi) rivojlantirilishiga qaratilgan bo'lishi maqsadga muvofiq. Har bir darsda ta'lim-tarbiya va sog'lomlashtirish vazifalari hal etiladi. Bu sinflarda jismoniy madaniyat taraqqiyotini baholash umumiy asosda amalga oshiriladi va sifat hamda miqdoriy ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi: bilim darajasi, motorikani egallash darajasi, jismoniy madaniyat va sport ishlarini olib borish qobiliyati, ta'lim standartlarini amalga oshirish, baholash o'smirni jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga va o'z natijalarini yaxshilashga undashi kerak

V-XI sinflarda o'quvchilarning har tomonlama jismoniy tayyorgarligini oshiradigan qaratilgan gimnastika, yengil atletika, sport (basketbol, voleybol, qo'l to'pi), futbol, kurash va boshqa sport turlari bo'yicha jismoniy tarbiya profilaktikasi joriy etiladi.

Shu bilan birga, jismoniy tarbiya muammolarini to'la hal etish va barcha ta'lim talablarini bajarishni ta'minlovchi umumiy va maxsus jismoniy tayorgarlikning nisbatiga rioya qilish lozim.

Yuqori sinflarda ushbu fanni o'qitish me'yoriy jismoniy rivojlanishda ko'maklashish, harakatlanish vaqtida va statik holatlarda gavdani to'g'ri tutish malakasini mustahkamlash, gimnastika, yengil atletika, sport o'yinlari (basketbol, voleybol, qo'l to'pi, futbol va boshqa) mashqlarni bajarishda texnik va taktik asoslarini o'rgatish ko'nikma va malakalarni mustahkamlaydi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'qituvchi o'quvchilarning xavfsizligi va sog'lig'iga to'g'ridan to'g'ri javobgar bo'lib, darsning o'quv mashg'ulotlariga ularni jalb etishda quyidagi ishlarni amalga oshiradi;

jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida birinchi navbatda intizomli bo'lishga, mashqlarni bajarish tartibiga va texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qilishga o'rgatish;

Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi dars mashg'ulotlarini boshlashdan oldin mashg'ulot o'tkaziladigan joyni tanlashi, diqqat bilan ko'zdan kechirishi, sport jihozlarining yaroqli ekanligiga ishonch hosil qilish va mashg'ulot o'tkaziladigan joylarning talab darajaida ekanligi e'tibor qaratishi, qo'yiladigan talablariga ko'ra, sanitariya-gigiena shartlarining muvofiqligini kuzatishi, o'quvchilarning jismoniy mashqlarni bajarishda xavfsizlik qoidalariga qat'iyon amal qilinishini ta'minlashi lozim.

Jismoniy tarbiya o'quv dasturi asosida fan o'qituvchisi yillik taqvim reja ishlab chiqadi va ta'lim muassasalarining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

Taqvim mavzuiy reja tuzishda oraliq va yakuniy nazorat ishlari to'g'ri taqsimlanishi, nazariy bilim berish va amaliy mashg'ulotlarining ketma-ketligiga e'tibor qaratishlari lozim.

1. Quvvatni oshirish uchun mashqlarni qo'shimcha yuk bilan tanlash kerak. Engil vazn bilan boshlang va kerakli natijaga erishish uchun asta-sekin oshiring.
2. Agar siz tezda ishlashni xohlasangiz, mashq qilish uchun ko'p takroriy mashqlarni bajarishingiz mumkin bo'lgan oddiy mashqlarni tanlashingiz kerak.
3. Chidamlilikni rivojlantirish uchun deyarli barcha muskullarni o'z ichiga olgan mashqlarni tanlang. Bunday mashqlar yurak-qon tomir va nafas olish tizimining maksimal ishlashiga olib keladi.
4. Qobiliyatni rivojlantirish uchun mashg'ulotlar sizga tezkorlik bilan o'tishga imkon beradi.
5. Agar maqsadingiz moslashuvchan bo'lsa, unda mashqlar asta-sekin o'sib boruvchi amplituda ketma-ketlikda amalga oshirilishi kerak.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Jjismoniy tarbiya o'quv fanini o'qitishning maqsad va vazifalari.
2. jismoniy tarbiya o'quv fanini o'qitishning maqsad va maqsadi.
3. Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi
4. Pedagogning tarbiya jarayonlari.
5. Tarbiyaning shaxs shakllanishidagi roli.
6. Yosh sportchi shaxsining shakllanishiga tashqi muhitning ta'siri.
7. Yosh sportchi shaxsining shakllanishida tarbiyaning roli.
8. Sport ta'lim muassasalarida tarbiya va uning turlaridan foydalanish
9. O'quv mashg'ulotlari jarayoni tarbiya usullaridan foydalanish.
10. Jismoniy tarbiya darslariga qo'yiladigan didaktik talablar.

KEYSLAR BANKI

1-MIKROKEYS

Har qanday pedagogik faoliyatning samaradorligi uning natijasi yoki natijalari bilan o'lanadi. Shaxs faoliyati, bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashda muayyan mezonlarga tayanib ish ko'riladi.

Mezonlarning ishlab chiqilishi faoliyat, bilim, ko'nikma va malakalarning obyektiv, xolis baholanishini ta'minlaydi.

Mikrokeys topshirig'i:

O'qituvchilarning innovatsion faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqing.

Ta'lim oluvchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

Innovatsiya va pedagogik innovatsiyalarga oid material va adabiyotlar.

Ta'lim oluvchilar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Pedagogika innovatsiyalarga doir bilimlaringizni tilimlang.
3. Mavzuga oid bilimlaringizni tizimlash asosida yechimni asoslashga uring.
4. Yechimni bayon eting.

Mikrokeysni yechish jarayoni:

1. Ta'lim oluvchilar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoad) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.

2. Ta'lim oluvchi sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoad) bilan pedagogik innovatsiyalarga doir bilimlarni tizimlarga urinadi.

3. Ta'lim oluvchi mavzuga oid bilimlarini tizimlangan holda yechimni asoslashga uring.

4. Yechim bayon etiladi.

O'qituvchining Yechimi

Pedagoglarning innovatsion faoliyatini baholash mezonlari

Holat	Mezonlar
Pedagogning innovatsion faoliyati	1. Yangiliklardan izchil xabardor bo'lish. 2. O'z fani bo'yicha yangiliklarni yaratish xohishiga egalik. 3. O'zlashtirgan yoki o'zi asoslangan yangiliklarni amaliyotga tadqiq etishda qat'iyatlilik ko'rsatish. 4. O'z faoliyatida innovatsiyalarni faol qo'llash

2-keys

Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining huquqi va majburiyatlari.

3-keys

Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining ta'lim jarayoni tashkil etish va boshqarish mahorati

4-keys

Pedagogik mahoratining tarkibiy qismlari nechta

5-keys

Kompetentlik va kompetensiya tushunchasi va mohiyati.

6-keys

Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari

7-keys

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining shaxsiy, kasbiy, umummadaniy, maxsus va tayanch kompetensiyalari

8-keys

Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi faoliyatiga kreativ yondoshuvi

9-keys

Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya o'quv fanini o'qitishning maqsad va vazifalari

10-keys

Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi

GLOSSARIY

GLOSSARIY

Atama	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Ijtimoiy kompetentlik	– ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.	Ability to be active in social relations, to have skills, to be able to communicate with the subjects in professional activities
Innovatsion kompetentlik	pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish.	to promote new ideas on improving the pedagogical process, improving the quality of education, increasing the effectiveness of the educational process, their successful implementation in practice.
Intuitsiya	(lot. “intuition” < “intueri” – “sinchiklab, diqqat bilan qaramoq”) – mantiqiy bog‘lanmagan yoki mantiqiy xulosaga kelish uchun etarli bo‘lmaganda qidiruv yo‘nalishlari asosida masalani echishning tarkibini bo‘lgan evrestik (unumli ijodiy fikrlash) jarayoni.	(Lat. "intuition" <"intueri" — "to look carefully") — a heuristic (productive creative thinking) process, which consists of solving the problem on the basis of search directions, which are not logically connected or insufficient to reach a logical conclusion.
Informatsion kompetentlik	axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish.	search, collection, sorting, processing and purposeful, appropriate, effective use of necessary, important, necessary, useful information in the information environment

Kasbiy ziyraklik	o'quvchilar ruhiy holatlarini, dars, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga bo'lgan ishtiyoqlarini to'g'ri baholash, ularning o'zaro yoki pedagoglar bilan ziddiyatlarini anglash, o'quvchi va guruhga ta'sir ko'rsatishda qulay vaziyatini tanlay bilish.	to correctly assess the mental state of students, their desire to conduct lessons, educational activities, to understand their contradictions with each other or with teachers, to choose a favorable situation in influencing the student and the group.
Kasbiy kompetentlik	mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.	the acquisition by a specialist of the knowledge, skills and competencies necessary for the conduct of professional activities and their application in practice at a high level.
Kasbiy-pedagogik burch	mutaxassis sifatida o'qituvchi tomonidan kasbiy faoliyatda ado etilishi majburiy bo'lgan vazifa	a task that must be performed by a teacher as a specialist in professional activities
Kommunikativ kompetentlik	ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish	to be able to communicate sincerely with all participants of the educational process, including students, to listen to them, to have a positive impact on them
Kompetentlik	(ingl. "competence" – "qobiliyat") – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqoridarajadagi kasbiy malaka, mahorat va	("competence") — the effective use of theoretical knowledge in practice, the ability to demonstrate the highest level of professionalism, skill and

	iqtidorni namoyon etalish.	talent.
Kreativ kompetentlik	pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish etalish	critical and creative approach to pedagogical activity, the ability to demonstrate their creative skills
Kreativlik	(ingl. "create" – yaratish, "creative" – "yaratuvchi", "ijodkor") – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati	(creative "create", "creative" — "creator", "creator") — the creative ability of the individual, which characterizes the readiness to produce new ideas and is part of the talent as an independent factor
Maxsus kompetentlik	– kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi	preparation for the organization of professional and pedagogical activity, rational solution of professional and pedagogical tasks, realistic assessment of the results of activities, consistent development of BCM, on the basis of this competence psychological, methodological, informational, creative, innovative and communicative competence
Nutq madaniyati	o'z fikrini nutq yordamida mantiqli, to'g'ri, obrazli, aniq va ifodali etkazib berish	level of mastery of the skills of logical, accurate, figurative, clear and expressive delivery of ideas

	malakalarining o'zlashtirilganlik darajasi	through speech
Mahorat	(arab. "mohirlik", "ustalik", "epchillik") – 1) biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san'at, mohirlik	(Arabic: "skill", "mastery", "dexterity") — 1) a skill necessary for a job, profession or acquired in this field
Mimika	(yunon. "mimikos" – "taqlidiy") – yuz muskullari harakatlari orqali shaxsning o'z fikri, his-tuyg'ulari, kayfiyati hamda mavjud voqelikka munosabatini ifodalashi.	(Greek. "mimicos" — "imitation") — the expression of a person's thoughts, feelings, moods and attitudes to reality through the actions of facial muscles.
Muloqot	1) kishilarning o'zaro aloqasi, bir-birlariga ta'sir ko'rsatishlari kishilar o'rtasidagi aloqani tiklash va rivojlantirish jarayoni; 2) kishilarning bir-birlariga ta'sir ko'rsatishi asosida ular o'rtasida ro'y beradigan axborot almashinuvi.	1) the process of restoration and development of communication between people, the interaction of people, their interaction with each other; 2) the exchange of information between people based on their interaction with each other.
Pantomimika	pedagog tomonidan bayon etilayotgan muayyan fikrni alohida ajratib ko'rsatishga, ma'lum qiyofa orqali gavdalantirishga imkon beradi gavda, qo'l va oyoqlarning harakati	movement of the body, arms and legs
Muloqot madaniyati	muloqot jarayonini axloqiy me'yorlar, ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil	have the need and ability to understand the interlocutor on the basis of organizing

	etish asosida suhbatdoshni tushuna olish ehtiyoji va qobiliyatiga egalik; 2) pedagogik madaniyatning tarkibiy elementlaridan biri.	the communication process in accordance with ethical norms, social requirements; 2) one of the constituent elements of pedagogical culture.
Pedagogik bilim	bolalarni o'qitish va tarbiyalash, ta'lim hamda tarbiya jarayonini tashkil etish asosida shaxsni har tomonlama kamol toptirishga doir tizimlashgan ma'lumotlar yig'indisi	Systematized collection of information on the comprehensive development of the individual on the basis of teaching and upbringing of children, the organization of the process of education and upbringing
Pedagogik kreativlik	(lot. "creatio" – "yaratish") – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati	(Latin "creatio" — "create") — the ability of the teacher to create new ideas that serve to ensure the effectiveness of the educational process, as opposed to traditional pedagogical thinking, as well as to describe the readiness to positively address existing pedagogical problems
Pedagogik ijod	pedagogning kasbiy jarayonni samarali tashkil etishga yo'naltirilgan yaratuvchanlik faoliyati Pedagogik intuitsiya (lot. "intueri" – "sinchiklab, diqqat bilan qarash") – pedagog tomonidan	Creative activity of the teacher aimed at the effective organization of the professional process Pedagogical intuition (Latin "intueri" — "look carefully") — the teacher's perception of the essence of

	pedagogik voqea-hodisaning mohiyatini, o'quvchi xatti-harakatlari mazmunini tasavvur, empatiya va orttirilgan tajriba asosida his-tuyg'u, sezgi yordamida, ziyraklik bilan mantiqiy dalillarsiz bevosita anglash	the pedagogical event, the content of student behavior based on imagination, empathy and experience , using intuition, intelligence with direct understanding without logical arguments
Pedagogik mahorat	1) o'qituvchining pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va subyektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish va boshqarish qobiliyati, ko'nikma-malakasiga egaligi; 2) ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur; 3) pedagog tomonidan kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalar majmui	1) the ability of the teacher to organize and manage the pedagogical process with great organizational, methodological, mental and subjective skills; 2) conscious, creative approach to the educational process, the ability to effectively apply methodological knowledge, high pedagogical thinking; 3) a set of knowledge, skills and abilities that ensure the masterful, skillful, artistic organization of professional activity by the teacher
Pedagogik refleksiya	(lot. "relaxatio" – "zaiflashish", "bo'shashish") – talabalarning hissiy faoliyati, ruhiy-jismoniy quvvati va ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash	(Lat. "relaxatio" — "weakening", "relaxation") — the restoration of students' emotional activity, mental and physical strength and ability to work
Pedagogik takt	(lot. "tactus" – "dahl	(Lat. "tactus" — "touch",

	qilish”, “dahldorlik”, “his etish”, “tuyg‘u”) – pedagogning o‘quvchilar bilan turli faoliyat shakllari bo‘yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar hamda hulq-atvor qoidalarga rioya qilishi, ularga to‘g‘ri yondashish malakalariga egaligi	"touch", "feeling", "feeling") — the teacher’s adherence to existing ethical principles and rules of conduct in communication with students in various forms of activity, the right approach to them possession of skills
Pedagogik texnika	pedagog tomonidan o‘zlashtirilgan alohida talaba va talabalar jamoalariga pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodlarini amalda samarali qo‘llay olish uchun zarur bo‘lgan BKM yig‘indisi (o‘zini o‘zi hissiy boshqarish, pantomimika, mimika, jest (gavda, qo‘l, oyoq harakatlari), nutq texnikasi, alohida so‘z yoki ifodalarni ifodalash sur’ati (ritmika))	the sum of BCM (self-emotional control, pantomime, facial expressions, gestures (body, arm, leg movements), speech technique, speed of expression of individual words or expressions, necessary for effective application in practice of methods of pedagogical influence on individual students and student groups mastered by the teacher (rhythm))
Shaxsiy kompetentlik	izchil ravishda kasbiy o‘shishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish	to consistently achieve professional growth, improve skills, demonstrate their inner potential in professional activities
O‘zini o‘zi baholash	(O‘O‘B) – shaxsning o‘z-o‘zini tahlil qilishi orqali o‘ziga baho berishi	(OO‘B) is an individual’s self-assessment through self-analysis

O‘zini o‘zi tahlil qilish	pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o‘z amaliy harakatlari mohiyatining o‘rganilishi	study of the essence of their practical actions organized by the teacher in professional activity
Qobiliyat	shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta’minlaydigan individual psixologik xususiyat	an individual psychological trait that allows an individual to easily engage in any activity
“Interfaol”.	tushunchasi ingliz tilida “interact”(rus tilida “interaktiv”) tarzida ifodalanib, lug‘aviy nuqtayi nazardan “inter” – o‘zaro, “act” – harakat qilmoq kabi ma’nolarni anglatadi	The term is expressed in English as "interact" and in lexical terms means "inter" — mutual, "act" — to act.
Interfaol ta’lim	o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lidagi o‘zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta’lim.	education based on the organization of the interaction of students in the acquisition of knowledge, skills, competencies and certain moral qualities
Interfaollik	o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklari. Mantiqiy nuqtayi nazardan	students’ knowledge, skills, competencies and specific ethics have the ability to organize a joint, collaborative movement to master the qualities. From a logical point of view
Metod	(yun. metodos — bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot) — voqelikni amaliy va nazariy	students’ knowledge, skills, competencies and specific ethics have the ability to organize

	egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.	a joint, collaborative movement to master the qualities. From a logical point of view
“Texnologiya”	atamasi qadimgi yunon tilida “texnos”-mahorat, san'at, “logos”-fan, ta'limot ma'nolarini anglatadi.	The term in ancient Greek means "technos" — skill, art, "logos" — science, teaching
Ta'lim metodi	o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini etishga yo'naltirilgan o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lsa, ta'lim metodikasi esa muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimi.	while teaching methodology is a method of interaction between teachers and students aimed at solving complex tasks of the educational process, while teaching methodology is a system of scientifically based methods, rules and techniques of teaching a particular subject.
Innovatsiya	ingl. “innovation” – yangilik kiritish, ixtiro) – ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish	ingl. "Innovation" — the creation of new ideas, norms, rules in the learner, the formation of advanced ideas, norms, qualities, skills related to the natural acceptance of rules, created by others

TESTLAR BANKI

2.3. “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari” modulidan test savollari

Savol	Manbasi va sahifasi
1. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni qachon qabul qilingan?	A. Akmalov, S. Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 22-bet
+2020 yil 23 sentyabrda	
1997 yil 29 avgustda	
1991 yil 6 dekabrda	
1998 7 martda	
2. Ta’lim tizimi, turlari va shakllari “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning nechanchi bobida ko‘rsatilgan?	A. Akmalov, S. Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 23-bet
+2-bobida	
1- bobida	
5- bobida	
10-bobida	
3. O‘zbekiston Respublikasida nechta ta’lim turi bor?	A. Akmalov, S. Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 26-bet
+7 ta	
6 ta	
5 ta	
10 ta	
4. Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning nechanchi bobida ko‘rsatilgan?	A. Akmalov, S. Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 23-bet
+5-bobida	
1- bobida	
10- bobida	
2- bobida	
5. Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish	A. Akmalov, S. Yaxyayeva, N.

huquqi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning nechanchi moddasida yoritilgan?	Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o’qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O’quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 23-bet
+44-moddasida	
5-moddasida	
3-moddasida	
10-moddasida	
6.Tegishli ma’lumoti, kasbiy tayyorgarligi bor, pedagog dars berish uchun yana qanday fazilatlarga ega bo’lishi kerak?	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o’qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O’quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 22-23 bet
+Ma’naviy-axloqiy	
Bilimli odobli	
Erkin fikrlay oladigan	
Mehribon	
7.Pedagog xodimlarning majburiyatlari “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning nechanchi moddasida o’z ifodasini topgan?	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o’qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O’quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 22-23bet
+46-modda.	
40-modda.	
45-modda.	
41-modda.	
8. Dars bu.....	B.X.Xodjayev.Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. darslik “Sano standart” nashriyoti.Toshkent – 2017.107-b.
+Ta’limning asosiy shakli bo’lib, muayyan o’quvchilar guruhi bilan olib boriladigan, ma’lum bir vaqtga mo’ljallangan bir nechta maqsadlar qo’yilgan pedagogik jarayon.	
Ta’lim beruvchi bilan, bilan ta’lim oluvchining pedagogik hamkorligi	
45-daqiqalik mashg’ulotlar	
Bilim, malaka, ko’nikma	
9. Pedagogika tarixida kim birinchi bo’lib sinf-dars tizimini ishlab chiqqan?	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani

	o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 22-34bet
+Yan Amos Komenskiy	
Abu Nasr Forobiy	
K.D Ushinskiy	
Aristotel	
10. Jismoniy tarbiya o‘qituvchining asosiy vazifasi hozirgi zamonda nimalardan iborat?	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 22-34bet
+Bolalarga jismoniy tarbiyaning zamonaviy shakllari va usullarini o‘rgatishdan	
Bolalarni mustaqil va erkin fikrlashga o‘rgatishdan	
Bolalarga puxta bilim berishdan	
O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishdan	
11. Mahorat bu...	A. Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 22-34bet
+Arab tilida ”mohirlik”, “ustalik”, ”epchillik” ma’nomlarni anglatadi	
Grekcha “tarbiyalayman” degan ma’noni bildiradi	
Grekcha “bola etaklayman” degan ma’noni bildiradi	
Lotincha “loyiq va mos kelmoq” ma’noni bildiradi	
12. Pedagogik mahoratning tuzilishi qaysi javobda to‘g‘ri qayd etilgan?	A. Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 22-34bet
+Insonparvarlik, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika, kasbiy bilimlar.	
Bolalarni sevish	

Pedagogik texnika	
Pedagogik qobiliyat	
13. Mahoratli pedagog bo'lishning faoliyat yo'nalishlari nechta?	A. Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva "Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari". O'quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 22-34bet
+4 ta	
5 ta	
3 ta	
6 ta	
14. Pedagogik muomala nima?	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva "Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari". O'quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 22-34 bet
+O'quvchi va o'qituvchining bir-birini tushunishi	
O'qituvchining o'quvchilar bilan olib boradigan kasbiy muloqoti	
O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi dialog	
O'quvchi va o'qituvchi orasidagi munosabat	
15. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning shakllari?	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva "Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari". O'quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 22-34bet
+Bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatish	
Maktabdan tashqari joylarda ta'sir ko'rsatish	
Dars paytida ta'sir ko'rsatish	
Uxlagan holda ta'sir ko'rsatish	
16. Texnologiya so'zining lug'aviy ma'nosi?	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva "Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari". O'quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 26-bet
+Texne – mahorat, san'at, logos – tushuncha, fan, ta'limot	
Texnologiya – ishlab chiqarish usuli	
Texne – texnika, logos — ta'limot	

Buyumni tayyorlash jarayoni	
17. “Kompetensiya” tushunchasining lug‘aviy ma’nosi?	J.Po‘latov, A.Abdumannatov, S.Yaxyayeva “Pedagogning professional kompetentligi va mahorati”. O‘quv-uslubiy majmua. 2021-yil. 45-49bet
+Lotincha “competere” degan so‘zdan olingan bo‘lib, “loyiq”, “mos kelmoq” ma’nosini anglatadi.	
Inglizcha “ competere ” so‘zidan olingan bo‘lib, “qobiliyat” ma’nosini bildiradi.	
Yunoncha “ competere ” degan so‘zdan olingan bo‘lib, “loyiq”, “mos kelmoq” ma’nosini anglatadi.	
Fransuz tilidan olingan bo‘lib, “qobiliyat” ma’nosini bildiradi.	
18. Kasbiy kompetentlik nima?	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N.Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 45-49-bet
+O‘qituvchi tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidan iborat	
Aniq vaziyatda kompetensiyani namoyon qila olish qobiliyati tushuniladi, o‘qituvchining mavjud kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyat	
O‘qituvchining kasbiy kompetentligi uning yuqori darajadagi o‘quv pedagogik faoliyati	
Ijtimoiy pedagogik faoliyatida va axborotlarni to‘plash, ularni saralab o‘z o‘rnida va me‘yorida foydalanishi	
19. Kasbiy faoliyatni amalga oshirishda mutaxassis tomonidan o‘zi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olishi qanday sifatni ifodalaydi?	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N.Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 45-49-bet
+Kompetentlikni	

Bilimni	
Ko‘nikmani	
Malakani	
20. Kasbiy kompetentlik sifatlarini belgilang?	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 45-49 bet
+Ijtimoiy, maxsus, shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetentlik	
Psixologik, maxsus, shaxsiy, individual va texnologik kompetentlik	
Ijtimoiy, metodik, tashkilotchilik, texnologik va individual kompetentlik.	
Ijtimoiy, maxsus, kreativ, innovatsion va ekstremal kompetentlik	
21. Kompetensiyaning nechta turi mavjud?	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 45-49 bet
+4 ta	
5 ta	
6 ta	
3 ta	
22. Izchil ravishda kasbiy o‘shishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish negizida pedagogga xos qanday kompetentlik aks etadi?	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 50-54 bet
+Shaxsiy kompetentlik	
Maxsus kompetentlik	
Ijtimoiy kompetentlik;	
Ekstremal kasbiy kompetentlik	
23. Ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish. Bu holatlar pedagogda qanday kompetentlik mavjudligini ifodalaydi?	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 45-49 bet
+Ijtimoiy kompetentlik	

Maxsus kompetentlik	
Ekstremal kasbiy kompetentlik	
Shaxsiy kompetentlik	
24. Psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik. Ushbu tarkibiy asoslar pedagogning qanday kompetentligiga xos?	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 50-54 bet
+Maxsus kompetentligiga	
Shaxsiy kompetentligiga	
Ijtimoiy kompetentligiga	
Ekstremal kasbiy kompetentligiga	
25. Kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish pedagogga xos kompetentlikning qaysi sifatini ifodalaydi?	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 25-49 bet
+Texnologik kompetentlikni	
Maxsus kompetentlikni	
Ijtimoiy kompetentlikni	
Ekstremal kasbiy kompetentlikni	
26. Ehtiyoj bu.....	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 45-49 bet
+Insonni faollikka keltiruvchi ichki undovchi kuch	
Xohish, istak	
Ehtiyoj, manfaat	
Maqsadga eltuvchi yo‘l	
27. Shaxsning o‘zini o‘zi samarali baholashiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 50-54 bet
+O‘zini tushunish; shaxs sifatida o‘z qadr-qimmatini anglash; o‘zini-o‘zi nazorat qilish	
O‘zini tushunish; o‘zini o‘zi boshqarish; o‘zini o‘zi tahlil qilish	

O‘zini tushunish; o‘zini o‘zi hurmat qilish; o‘zini-o‘zi boshqarish	
O‘zini o‘zi tahlil qilish; shaxs sifatida o‘z qadr-qimmatini anglash; o‘zini-o‘zi nazorat qilish	
28. Shaxsning o‘z-o‘zini tahlil qilishi orqali o‘ziga baho berishi qanday nomlanadi?	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 50-54 bet
+O‘z-o‘zini baholash	
O‘zini o‘zi tahlil qilish	
O‘zini o‘zi anglash	
O‘z-o‘zini rivojlantirish	
29. Pedagogning o‘z ustida ishlashi necha bosqichda kechadi?	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 50-54 bet
+5 bosqichda	
7 bosqichda	
9 bosqichda	
3 bosqichda	
30. Pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o‘z amaliy harakatlari mohiyatining o‘rganilishi – bu ...	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 50-54 bet
+O‘zini o‘z tahlil qilish	
O‘z-o‘zini baholash	
O‘zini o‘zi anglash	
O‘z-o‘zini rivojlantirish	
31. Lug‘aviy jihatdan “Innovatsya” tushunchasi.....	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 50-54bet
+Yangilik kiritish	
O‘zgartirish kiritish	
Qo‘shimcha kiritish	

Taklif kiritish	
32. Lug‘aviy jihatdan “Interfaol” tushunchasining ma’nosi...	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 45-49 bet
+O‘zaro harakat qilmoq	
O‘zaro fikr almashmoq	
O‘zaro yordam bermoq	
O‘zaro kelishib olmoq	
33. Interfaol metodlarning maqsadi nima?	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 50-54 bet
+Insonni faol fikrlashga undovchi usul	
Fikrning zarurligi	
Yondashuv, fikran amaliy jarayon	
Komil shaxsni tarbiyalashda o‘qituvchining mavqeyi	
34. Aqliy hujum metodi bu....	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 50-54 bet
+Tezkor savollarga tezkor javob berish	
Savollarni umumlashtirish	
Guruhlarga bo‘lish	
To‘g‘ri javob tanlash	
35. Tarbiya turlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni belgilang?	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 50-54 bet
+Axloqiy, aqliy, huquqiy, ekologik, iqtisodiy, estetik, jismoniy	
Aqliy, axloqiy, ekologik, estetik	
Huquqiy, ekologik, iqtisodiy, estetik, jismoniy	
Huquqiy, ekologik, iqtisodiy, estetik, jismoniy	
36. Tarbiya usullarning qanday turlari mavjud?	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N.

	Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 50-54 bet
+So‘z orqali, ko‘rgazmali, amaliy, namuna bo‘lish, rag‘batlantirish, jazolash.	
Bilim, malaka, tajriba,	
O‘z o‘zini ishontirish orqali	
Boshqarish, nasihat tanbeh berish	
37. Qobiliyat bilimdan farq qiladi, bilim – bu ...	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 50-54 bet
+Ilmiy mutolaa natijasidir	
Igna bilan quduq qazishdir	
Inson umrini bezovchi bezak	
Qorong‘i yo‘llarni yoritguvchi chiroq	
38. Nechta pedagogik qobiliyat mavjud?	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 45-49 bet
+9 ta	
10 ta	
18 ta	
5 ta	
39. Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanini o‘qitishning vazifalari	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva “Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari”. O‘quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 50-54 bet
+ Jismoniy tarbiya darslarida asosan uchta vazifalar hal qilinadi. Jumladan, ta‘limiy, tarbiyaviy, sog‘lomlashtiruvchi	
Ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish	
O‘qituvchining o‘quvchilar bilan olib boradigan kasbiy muloqotida sportga	

yo'naltirish	
O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi pedagogik hamkorlik	
O'quvchi va o'qituvchi orasidagi munosabat	A.Akmalov, S.Yaxyayeva, N. Yuldasheva "Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari". O'quv-uslubiy majmua. 2023-yil. 26-bet
+ Insonni faol fikrlashga undovchi usul	
Fikrning zarurligi	
Yondashuv, fikran amaliy jarayon	
Komil shaxsni tarbiyalashda o'qituvchining mavqeyi	

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -T.: "O'zbekiston". 2017. – 592 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild / Sh.M. Mirziyoyev. -T.: "O'zbekiston", 2019. – 400 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild / Sh.M.Mirziyoyev. -T.: "O'zbekiston", 2019. – 592 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild / Sh.M.Mirziyoyev. -T.: "O'zbekiston", 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi "“Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi O'RQ-394-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-2742233>
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 3-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'RQ-653-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/5140909>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5368-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/3578121>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-4312785>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-5924-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4711327>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6099-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5077667>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6008663>

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 355-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6093267>

III. Maxsus adabiyotlar

1. Akmalov A.A. Pedagogning professional kompetentligi va mahorati. [Matn]: o'quv qo'llanma / A. A. Akmalov. -T.: Complex print, 2023.-168 b.

2. Akmalov A.A. Sport ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalar. [Matn]: o'quv qo'llanma / A. A. Akmalov.-T.: Complex print, 2023.-144 b.

3. Hayitov O.E. Psixodiagnostika: O'quv qo'llanma. – T.: TDIU "Talaba", 2007. – 225 b.

4. Muslimov N.A. va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. -T.: "Sano-standart", 2015. – 120 b.

5. Pulatov J.A. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining dars jarayonlarini tashkil etishida psixologik yondoshuvi. [Matn]: o'quv qo'llanma. -T.: "Umid Design", 2021.-113 b

6. Olimov Sh.Sh, Sh.X. Samiyeva, Yu.Z. Saidova. Pedagogik kompetentlik va kreativlik. Darslik. — Buxoro, 2023

7. Tishabayev A. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi. [Matn]: o'quv qo'llanma / A. Tishabayev. -T.: "Umid Design", 2023.- 110 b.

8. Гулобод Қ., Р.Ишмухамедов, М.Нормухаммедова. Анъанавий ва ноанъанавий таълим. - Самарқанд: "Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази", 2019. – 312 б.

9. Ишмухамедов Р.Ж., М.Мирсолиева. Ўқув жараёнида инновацион таълим технологиялари. - Т.: "Fan va texnologiya", 2014. – 60 б.

10. Муслимов Н.А ва бошқалар. Инновацион таълим технологиялари. Ўқув-метodik қўлланма. - Т.: "Sano-standart", 2015. – 208 б.

11. Kreativnaya pedagogika. Metodologiya, teoriya, praktika. pod. red. Popova V.V., Kruglova YU.G.-3-e izd.-M.: "BINOM. Laboratoriya znaniy", 2012.-319 s.

12. В.Х.Ходжыев Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. — T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017-yil, 416 bet

Elektron ta'lim resurslari

1. <https://edu.uz>
2. <https://uz-edu.uz>
3. <https://www.openinfo.uz>
4. <https://ziyonet.uz>
5. <https://minsport.uz>
6. <https://president.uz>
7. <https://sportedu.uz>
8. <https://www.gov.uz>